

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA**

**MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**HISOB VA AUDIT FAKULTETI**

**«BUXGALTERIYA HISOBI» KAFEDRASI**

**ASHIROV AKMALJON IBRAGIMOVICH**

**«XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA  
BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITNING  
XUSUSIYATLARI»**

**5340900-»Buxgalteriya hisobi va audit»-ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr  
darajasini olish uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**

**«Buxgalteriya hisobi» kafedra mudiri**

\_\_\_\_\_ i.f.n.,dots.B.O.Bolibekov

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2013y.

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ o'q.Tashmanov.G'.

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2013y .

**TOSHKENT-2013**

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning nazariy uslubiy-asoslari.	
1.1. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning ahamiyati.....	8
1.2. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit tekshiruvini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	21
II-BOB. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobi va uni takomillashtirishning o'ziga hos xususiyatlari.	
2.1. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tartibi.....	29
2.2. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari.....	45
III-BOB. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni tashkil etish va uni o'tkazish masalalari.	
3.1. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni tashkil etishning ahamiyati.....	51
3.2. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni rejalashtirish va dasturini tuzish.....	56
3.3. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit natijalarini umumlashtirish.....	64
Xulosa.....	
Adabiyotlar.....	
Ilovalar.....	

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining ulushi yalpi ichki mahsulot tarkibida ancha yuqori. Shu sababli, respublikamizda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini faoliyatini tashkil qilish va jahon tajribasi asosida takomillashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar iqtisodiyotni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgandan keyin oldingi iqtisodiy tizim o'rniga xalqaro standartlarga mos demokratik huquqiy davlat barpo etish modeli tanlab olindi. O'tish davri sharoitida huquqiy asoslarni shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, davlat mulkiga asoslangan mulkchilik shaklini isloh qilish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot yaratish masalasi ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilindi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning keng miqyosda rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kuzatilmoqda. Tabiiyki mamlakat rivojlangani sari yangi tarmoqlar va sohalarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Yangi tarmoq va sohalarning rivojlanishi o'z navbatida mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, iqtisodiyotni bozor qonuniyatlari talablariga muvofiqlashtirish, mamlakatda aholi ehtiyojlarini qondira oladigan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish kun masalasi hisoblanadi. Shu o'rinda, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «... buning uchun iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ... uni doimiy ravishda modernizatsiya qilish va yangilab borish, o'z mahsulot va xizmatlari bilan jahon iqtisodiyoti va savdo tizimida munosib o'rin egallay oladigan zamonaviy tarmoqlarni jadal rivojlantirish lozim»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12.-T.: „O'zbekiston“. 2004.-399 b.(b.198).b.

Bugungi kunda aholiga xizmat ko'rsatuvchi umumiy ovqatlanish, chakana va ulgurji savdo shuningdek, avtotransport korxonalari, sartaroshxonalar aholining og'irini yengil uzog'ini yaqin qilishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz ma'ruzasidan bilishimiz mumkinki:»2012-yilda xizmat ko'rsatish sohasi ham yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi qariyb 15 foizga o'sdi, ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa bugungi kunda 52 foizdan ziyodni tashkil etmoqda»<sup>2</sup>

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni tashkil etish va ularni yuritishdan asosiy maqsadi foyda olish bilan birgalikda, bu aholini ishsiz qatlamini ish bilan ta'minlashdan iboratdir. Albatta bunday korxonalar iqtisodiyotning yetakchi sohasi hisoblanadi. Mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida ishsizlik darajasi va ish bilan ta'minlanganlik darajasi ham hisobga olinadi. Shunday ekan ana shunday aholiga ham xizmat ko'rsatuvchi, ham aholini ish bilan ta'minlovchi korxonalarining tashkil etilishi ijobiy holdir.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bugungi mamlakatizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Chunki mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasi asosiy qismni egallaydi. Hayotimiz qancha rivojlangani sari xizmat ko'rsatish sohasiga talab ortib boraveradi. Insonlarning hayoti qancha yengilashgani sari insonlar undanda yengiliga harakat qilaveradi. Shunday ekan bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasini yangilash va modernizatsiya qilish, yangi-yangi sohalarni o'ylab topish bugungi kunning asosiy kun masalasi hisoblanadi.

Ushbu vazifalarni muvafaqqiyatli bajarish mamlakatimizda xizmat ko'rsatish korxonalari buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish, ular amaliyotiga buxgalteriya jarayonining rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida qo'llanilayotgan shakllari va usullarini joriy etishni talab etadi.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlaktimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ular amaliyotida buxgalteriya hisobi va audit tizimini oqilona tashkil etish va yuritishni taqozo etmoqda ayni paytda soha korxonalari faoliyatida buxgalteriya hisobi va audit an'anaviy tarzda tashkil qilinganligi sababli ularni xalqaro standartlar asosida tubdan isloh qilish talab etilmoqda.

O'zbekiston respublikasi boshqa rivojlangan mamlakatlarga qiyos qilganimizda anchagina yangi va yosh davlat hisoblanadi. Lekin bugungi kunda uning erishgan yutuqlari maqtovg'a loyiqdir. Malakatimiz mustaqilikka erishganiga endigina 22 yil bo'lgan bo'lsada mamlakatimiz erishgan yutuqlari havas qilsa arzirlidir. Yurtimizga har yili ko'plab sayyohlar, mehmonlar, ishbilarmonlar, biznesmenlar va ko'plab boshqa soha egalari tashrif buyurishadi. Albatta ular ham yashash sharoitimizga turmush tarzimizga alohida e'tibor bilan qarashadi. Mamlakatimizning xizmat ko'rsatish sohalari bilan qiziqishadi. Jumladan transport sohasini rivojlanganligiga, umumiy ovqatlanish, bozorlarimizdagi savdo sohasini qay tarzda ekanligi barchani qiziqtirmasdan qolmaydi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishdagi zaruratini quyidagilar orqali belgilash mumkin:

- korxonalariga zarur moddiy resurslarni etkazib berish orqali ular faoliyatida takror ishlab chiqarishning uzviyligi samaradorligini ta'minlash;
- aholining yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga ko'maklashish;
- aholiga sifatli transport xizmatlarini ko'rsatish;
- ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan doimiy ravishda ta'minlab turish;
- ishlab chiqarilgan maxsulotlarni respublikaning turli hududlari aholisi va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida taqsimlash;
- aholiga turli xil maishiy xizmatlarni ko'rsatish;

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobi va audit xizmatini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash

hamda ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi asosiy vazifalar belgilab olingan:

- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning ahamiyatini ochib berish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit tekshiruvini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini yuritish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tartibini tuzish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish;
- xizmat ko'rsatish korxonarida audini tashkil etish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni rejalashtirish va dasturini tuzish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit natijalarini umumlashtirish.
- respublikamizda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni shakllantirishdagi o'ziga xos xususiyatlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning zaruratini ochib berish;

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.** O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bitiruv malakaviy ishning ob'ekti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.** Respublikamizda amalga oshirilyotgan iqtisodiy islohotlar, Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari bitiruv malakaviy ishining nazariy uslubiy asoslari bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari iqtisodiyotning turli sohalariga, shu jumladan buxgalteriya hisobi va audit sohasiga tegishli O'zbekiston respublikasining Qonulari, Prezidentimiz

I.A.Karimov Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Iqtisodiyot Vazirligi, Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi, Statistika Qo'mitasi, Markaziy Bank kabi vazirlik va idoralarning me'yoriy-huquqiy hujjatalari hamda yo'riqnomalari, shuningdek buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslarini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishida 6 ta jadval, 5 ta chizma ham keltirilgan.

## **I-BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etishning nazariy uslubiy-asoslari.**

### **1.1 Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning ahamiyati.**

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, makro-mikroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash evaziga uzluksiz iqtisodiy o'sishga erishishdek dolzarb vazifa qo'yilgan. Bu esa o'z navbatida xo'jalik yurituvchi sube'ktlarning moliyaviy natijalarini tahlil qilish va buxgalteriya hisobini qonunda belgilab qo'yilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yuritilishini talab etadi. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek: «...iqtisodiy vaziyatni har tomonlama tahlil qilmay turib, jamiyatning sifat jihatdan yangi holatiga o'tib bo'lmaydi»<sup>3</sup>.

Albatta prezidentimizning bu so'zlaridan anglashimiz mumkinki, iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish uchun bizga iqtisodiy ma'lumotlar kerak bo'ladi. Iqtisodiy manbalarni shakllantirib beruvchi bo'lim buxgalteriya bo'limidir. Buxgalteriya bo'limini har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektda tashkil etish bu iqtisodiy vaziyatni har tomondan nazorat va tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, xizmat ko'rastuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini to'g'ri va belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ravishda tashkil etish bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning oldiga qo'yilgan asosiy vazifadir.

Mamlakat rivoji kengaygan sari mamlakatda o'z-o'zidan yangi-yangi soha va tarmoqlarni paydo bo'lishiga ehtiyoj seziladi. Bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida yangi sohalarning paydo bo'lishi, bu sohalarni davlat va tegishli davlat idoralari tomonidan tartibga solinishi talab etadi. Chunki tartib yo'q joyda yuksalish kuzatilmaydi. Bu tartiblarni amalda bajarilishini davlat soliq idoralariga soliq idoralari esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga yuklaydi.

---


<sup>3</sup> Karimov.I.A Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – Toshkent, 1994,- 8b.



Aslini olganda O'zbekiston Sharq va G'arbni bog'lovchi maskan hisoblangan. Bizning diyorimiz Buyuk Ipak Yo'lining markazi hisoblangani sababli ko'plab savdogar va yo'lovchilar bizning mamlakatimizga to'xtab o'tishgan. Ajdodlarimizning o'zlari ham savdo-sotiq ilm sohasi va boshqa ko'plab sohalar bilan shug'ullanishgan. Bu sohalar bugunga kunga kelib, rivojlantirilyapti. Bu esa o'z navbatida rivojlangan davrda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining hisobini yuritilishini talab etadi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish xizmat ko'rsatuvchi korxonaning kelajakdagi faoliyatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha xizmat ko'rsatish korxonalarini o'zlik mablag'laridan, bank kreditlari, ssuda kapitalidan foydalanib, mavjud tovarlar va xizmatlarni sotish natijasida foyda olishga yo'naltirilgan faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi korxonalaridir.



1-chizma. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobining ob'ektlari.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobining hozirgi holatini tahlil qilish uni takomillashtirishdagi mavjud muammolarni quyidagilarga ajratish imkonini beradi:


- buxgalteriya hisobining kontseptual asoslarini rivojlantirishga doir muammolar;

- buxgalteriya hisobi borasidagi nazariy va amaliy muammolarni aniqlash;

- buxgalteriya hisobining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

Xizmat ko'rsatish korxonalarida buxgalteriya hisobining kontseptual asoslarini rivojlantirishga doir muammolar ularda oqilona hisob siyosatini tashkil etish, yangi ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish, tovar (ish, xizmatlar)ni sotish bahosini shakllantirish, soha xususiyatlariga asoslangan holda moliyaviy, statistik, soliqlar va boshqa hisobot shakllarini tuzish uslubini yaratish kabi masalalar bilan bogliq.

Biz xizmat korsatish korxonalarini sifatida:



2-chizma. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining turlari.

Albatta har bir korxonaning buxgalteriya hisobi bir-biridan farq qiladi. Misol uchun savdo korxonalarini ham ikki guruhga ya'ni chakana savdo va ulgurji savdoga ajratishimiz mumkin ya'ni bu degani ulgurji savdo korxonalarida asosan savdo pul o'tkazish yo'li bilan yuritilsa chakana savdo korxonalarida savdo ham plastik, ham pul o'tkazish yo'li bilan ham naqd pul bilan amalga oshiriladi. Har bir soha ya'ni xizmat ko'rsatish sohasida buxgalteriya hisobi o'zgacha. Har birining o'z usuli mavjud. Shuning uchun biz har bir xizmat ko'rsatuvchi korxonaning buxgalteriya hisobini alohida-alohida yoritamiz.

Respublikamiz xizmat ko'rsatish faoliyatini tartibga solish va rivojlantirishga qaratilgan hukumat chora-tadbirlarini amalga oshirishda katta o'rin boshqarishning muhim vositalaridan bo'lgan buxgalteriya hisobi va soliqqa berilgan. Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilinishi xizmat ko'rsatish

faoliyatini belgilangan qoidalarga amal qilinishiga, qonunbuzarchiliklarni oldini olishga, savdo pullarini o'z vaqtida banklarga topshirilishiga, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining davlat oldidagi soliqlar va to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini to'liq ado etishga imkon yaratadi.

Har qanday jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchlardan biri savdo hisoblanadi. Chunki jamiyatda yaratilgan nozu-ne'matlarni iste'molchilarga etkazib berish aynan savdo orqali amalga oshiriladi. Savdo jamiyatda yuz bergan va berayotgan ishlab chiqarishning takrorlanishini, ya'ni takror ishlab chiqarishni, davomiyligini bevosita ta'minlab beruvchi vosita hisoblanadi.

Savdoda ishlab chiqarilgan tovarlar pulga almashtiriladi, demak davlatning pul muomalasi siyosatini amalga oshirishda, pul tushumlari rejasini bajarishda savdoning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Respublikamiz prezidenti va hukumati mamlakatimizda savdoni rivojlanishiga juda katta e'tibor bermoqda. Buning yorqin guvohi sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda savdo faoliyatini liberallashtirish, savdo korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy savdo shaxobchalarini, yakka tartibdagi xususiy tadbirkorlik asosidagi savdo faoliyatini kengaytirishga keng yo'l ochib berildi. Lekin, jamiyatimiz uchun yangi bo'lgan xususiy savdo tijoratchilik faoliyati tadbirkorlar tomonidan savdo qoidalarini buzish, savdodan tushgan pullarni bank muassasalariga topshirmaslik, katta miqdordagi pul mablag'larini qo'ldan-qo'lga o'tib ketishi, pirovard natijada banklarda pul mablag'arining tanqisligini vujudga kelishi, qo'shimcha pul emmissiyasini amalga oshirish va boshqa shu kabi salbiy holatlarga ham olib keldi. Shuning uchun respublika hukumati tomonidan oxirgi ikki yilda savdo faoliyatini tartibga solish va uni rivojlantirish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, xalq iste'mol tovarlarini respublika hududiga olib kirish va undan olib chiqib ketish, pul muomalasini takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlar va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Respublika vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2002-yil 26-noyabrdagi «Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo

faoliyatini qayd etish va yuritishni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» 407-son qarori, 2003-yil 4-fevraldagi «Ulgurji savdo korxonalarini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari» to'g'risida 62-son qarori, 2003-yil 13-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari va O'zbekiston respublikasida umumiy ovqatlanish maxsulotlari (xizmatlari)ni ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash» to'g'risida 75-son qarori respublikamizda savdo faoliyatini tubdan yaxshilash va rivojlantirish, ularni iste'molchilar manfaatlariga moslashtirish, savdo faoliyatida qonunbuzarchiliklarni oldini olishga qaratilgan davlatimiz siyosatining yorqin namunasidir.

Shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida savdo korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarilishi, savdoni liberallashtirish, xususiy savdoni rivojlanishiga e'tiborni kuchayishi, mos ravishda, savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha yangi zamon talablariga mos keluvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. O'tkazilayotgan soliq nazoratlari va auditorlik tekshiruvlarida tekshiruvchi xodimlar Respublika Xukumati tomonidan savdo faoliyatining buxgalteriya xisobiga doir tasdiqlangan maxsus me'yoriy hujjatlarni yo'qligi sababli ma'lum darajada qiyinchiliklarga uchramoqdalar va ko'p munozaralarga sababchi bo'lmoqdalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo tijorat korxonalarining oldiga tovarlarni iste'molchilarga belgilangan miqdorda va muddatda yetkazib berish, tovarlarni omborlarda sifatli saqlanishini tashkil etish, xaridorlarni zarurat tovarlarga bo'lgan talabini tezkor tahlil qilish, ularga zamonaviy servis xizmatlari ko'rsatish kabi bir qancha muhim vazifalar qo'yiladi.

Savdo-tijorat faoliyatida muhim iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib tovar aylanmasi hisoblanadi. Unga «Entsiklopedik lug'at»da quyidagicha ta'rif berilgan. «Tovar oboroti. 1) tovarlar muomalasi jarayoni. 2) Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlarini sotish jami qiymatini aks ettiradigan iqtisodiy ko'rsatkich. Ulgurji va chakana tovar oborotiga bo'linadi. Ulgurji tovar oboroti ishlab chiqarish va sotish korxonalarini tomonidan chakana savdo

tashkilotlarida sotilgan va sanoat usulida qayta ishlash uchun korxonalariga berilgan tovarlar sotish hajmini o'z ichiga oladi. Chakana tovar oboroti chakana savdo tarmog'i, umumiy ovqatlanish korxonalari, shuningdek atel'e, remont ustaxonalari va boshqalar tomonidan aholiga tovarlar sotish hajmi va xizmat ko'rsatishdan iboratdir»

Ayni paytda iste'mol bozorida tovarlarni sotilishi borasida ayrim muammolar mavjud. Bu holatni aholining to'lovga qobiliyatligini pasayganligi va soliq yukining kattaligi bilan izohlash mumkin. Mazkur muammolarni yechishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining soliqqa tortishni tartibga solish bo'yicha 2003-yil 30-iyundagi Farmonini qabul qilinishi savdo tashkilotlarining aylanma mablag'larini ko'paytirishga, savdoning rivojlanishiga va naqd pul tushumining ko'payishiga imkon yaratdi.<sup>4</sup>

Savdo tijorat korxonalarining boshqaruvi samaradorligini oshirish, moliyaviy holatini yaxshilash ular xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni son jihatdan tavsiflash, bu ko'rsatkichlar to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayd etish va umumlashtirish hamda hujjatlarda rasmiylashtirishni taqozo etadi. Mazkur masalalarni bevosita savdo tijorat korxonalarida buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish orqali muvafaqqiyatli amalga oshirish mumkin. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobi ushbu xo'jalik yurutuvchi sub'ektlarning tovar aylanish rejasi va moliyaviy xo'jalik faoliyatini baholashning asosiy mezonini bajaruvchi axborotlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim.

Bugungi kunda savdo korxonalarida buxgalteriya hisobi oldiga qo'yilgan vazifalarni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqdir:

1.Ulgurji va chakana savdo korxonalarida tovarlarni keltirish, saqlash, yuklash bilan bog'liq muomalalar hisobini tashkil qilish;

2.Tovarlar inventarizatsiyasi natijasida aniqlangan nobudgarchiliklar, kamomadlar, va yo'qotishlarni o'z vaqtida hisobga olish;

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 2-iyuldagi „O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Savdo va umumiy ovqatlanish sohasida soliqqa tortish tizimini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida“ 2003-yil 30-iyundagi PF-3270-son Farmonini amalga oshirish to'g'risida“gi 300-sonli qarori.

3. Tovarlar bo'yicha baho siyosatini to'g'ri shakllantirish va uni samarali amalga oshirilishini doimiy kuzatib borish;
4. Savdo korxonalarida tovarlarni komissiya, konsignatsiya, kredit shartnomalari bo'yicha sotish hisobini yuritish;
5. Import qilingan tovarlar bo'yicha soliqlar hisobini oqilona tashkil etish;
6. Sotilgan tovarlar bo'yicha moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlash;
7. Ulgurji va chakana savdo korxonalarida xo'jalik muomalalarini tegishli buxgalteriya (moliyaviy) hisobot shakllarida to'liq aks ettirish.

Tovarlarni savdo-sotig'ini amalga oshirish va unda qo'llaniladigan hisob-kitoblarning shakliga ko'ra savdo ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo turlariga bo'linadi.

Ulgurji savdo - savdo sohasida tovarlarning yirik turkumlarini hisob-kitoblarning naqd pulsiz shakli bo'yicha, uni tijorat tadbirkorlik faoliyati maqsadida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanishni mo'ljalayotgan xo'jalik yurituvchi sube'ktlarga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Ulgurji savdo ham ichki, ham tashqi savdo faoliyati bo'lishi mumkin.

Mayda ulgurji savdo sohasida tovarlarni kichik turkumlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz va naqd pul shakllari bo'yicha sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish.

Chakana savdo-sotiq sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish.

Chakana savdo yurituvchi shaxslarning statusiga ko'ra savdo faoliyati jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdogaga bo'linadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati – deganda yuridik shaxs maqomisiz mahalliy hokimiyat tomonidan ro'yxatdan o'tgan va

savdo faoliyatini yuritish huquqiga eg bo'lgan xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan savdo tushuniladi.

Yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati – deganda yuridik shaxs sifatida mahalliy hokimiyat tomonidan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'lgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan savdo faoliyati tushuniladi.

Savdo faoliyatining turlariga va davlat statistika organlari beradigan tarmoq kodiga ko'ra savdo korxonalarini quyidagilarga bo'linadi.

- ulgurji savdo (71100);
- chakana savdo (71200);
- umumiy ovqatlanish (71300);

Ulgurji va chakana savdo korxonalariga, o'z navbatida, mulkiy shakli, sotadigan tovarlarining turlari bo'yicha maxsus ichki savdo tarmog'i kodlari beriladi.

Xodimlarning soniga ko'ra savdo korxonalarini yirik korxonalar, kichik korxonalar va mikrofirmalarga ajratish mumkin.

Avtotransport korxonalarida boshqa korxonalar singari buxgalteriya hisobining ob'ektlari bo'lib asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlari, ularni tashkil qiluvchi jarayon va operatsiyalar, faoliyat turlarining olib borilishini ta'minlovchi aktivlar, aktivlarni tashkil topish manbalari, shuningdek erishilgan moliyaviy natijalar hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining ushbu ob'ektlari avtotransport korxonalarida, bir tomondan, o'ziga xos xususiyatlarga, ikkinchi tomondan esa, barcha korxonalaridagi umumiy jihatlarga ega.

Avtotransport korxonalarini asosiy faoliyatini bevosita avtotransport vositalari bilan bog'liqligi buxgalteriya hisobidan avvalambor ushbu vositalarning mavjud holati va harakati, ular yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar, olingan daromad va qilingan xarajatlar, avtotransport xizmatidan erishilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash kabi funksiyalarni bajarishni taqozo etadi. Bundan tashqari hisob xodimlari avtotransport vositalari ish faoliyatini soniy va sifat

jihtadan ifodalovchi ko'rsatkichlarni doimiy nazorat va tahlil qilish, nazorat va tahlil natijalarini tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida rahbariyatga hamda boshqa foydalanuvchilarga o'z vaqtida yetkazib berish kabi vazifalarni ham bajarishlari lozim.

Avtotransport korxonasida buxgalteriya hisobining to'g'ri tashkil etilganligiga uning rahbari bevosita javobgardir. Shuningdek rahbar buxgalteriya hisobini tashkil etilishi va yuritilishini ta'minlash maqsadida buxgalteriya to'g'risida Nizom, bosh buxgalter va buxgalterlarning kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar, buxgalterlar o'rtasida funksional majburiyatlarning taqsimoti, mehnat shartnomalari va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni o'z buyrug'i bilan tasdiqlashi lozim. Ushbu ichki me'yoriy hujjatlarning mavjudligi va ularga amal qilish avtotransport tashkilotlarida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilinishi va yuritilishi muhim omillaridan hisoblanadi. Avtotransport korxonalarida hisob siyosatida avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) lardan olinadigan daromadlar, ularga doir sarf-xarajatlar hamda yakuniy moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tan olish va hisobini yuritish usullari aniq belgilab qo'yilishi lozim. Hisob siyosatida naqd pul asosida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) lardan olingan daromadlarni kassa usulida, naqdsiz pul asosida bajarilgan ishlardan olingan daromadlarni esa hisoblash usulida tan olish hamda hisobga olish tartibini aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari haydovchilar tomonidan yo'lovchilardan terib olingan naqd pul hisobidan qilingan sarf-xarajatlar (masalan yo'lda olingan yoqilg'i, ehtiyot qismlar, ta'mirlashga sarflangan pul mablag'lari)ni daromad sifatida tan olish va tegishli schyotlarda aks ettirish tartibi hisob siyosatida aniq ifodalanishi lozim.

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar buxgalteriya hisobida muntazam yuritilishi lozim. Avtotransport korxonalarida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) deganda avtotransport yordamida aholiga va yuridik shaxslarga yuk tashish hamda yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) tushuniladi. Avtotransport yordamida



bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmining pul birligidagi qiymati mamlakatning yalpi ichki mahsulotida o'z aksini topadi.

Avtotransport vositalari tomonidan bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) hajmini ifodalovchi soniy hamda sifat ko'rsatkichlar avtotransport korxonasi uchun tuziladigan biznes rejasida o'z aksini topadi. Buxgalteriya hisobi ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha biznes rejada ko'rsatilgan marralarni bajarilishini nazorat hamda tahlil qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarida hisob siyosatida boshqa turdagi korxonalar singari tanlab olingan buxgalteriya hisobi ob'ektlarini tan olish mezonlari, ular hisobini yuritishga asos bo'luvchi hujjatlar tizimi, ishchi schyotlarga, boshlang'ich hujjatlar aylanishi, arxiv ishini tashkil qilish, tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiyasini o'tkazish jadvali, hisobni yuritishga doir boshqa tartib-qoidalar o'z aksini topishi lozim.

Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shaklini belgilashda ularning katta-kichikligi, maqomi, hujjatlar soni va boshqa jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, yirik avtoxo'jaliklarda bajariladigan hisob-kitob ishlarining ko'pligi maxsus buxgalteriyani tashkil qilishni, shuningdek uning tarkibida alohida bo'limlarni (masalan transport vositalari ish faoliyati hisobi bo'limi, moddiy boyliklar hisobi bo'limi, mehnat va unga haq to'lash hisob-kitobi bo'limi, moliyaviy hisob-kitoblar bo'limi va boshqalar) ochishni taqozo etadi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar maqomidagi avtotransport korxonalarida maxsus hisob bo'linmasi tashkil qilinmasligi, ushbu ishlar shartnoma asosida ishga qabul qilingan yakka buxgalter yoki maxsus buxgalterlik firmalari tomonidan yuritilishi mumkin.

Avtotransport yordamida bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar avtotransport korxonalarida turli xizmat ko'rsatuvchi va yordamchi xo'jaliklar faoliyatini uzluksiz kuzatish hamda hujjatli asosda hisobga olib borishni ta'qozo etadi. Ushbu xususiyatlar avtotransport korxonalarida o'ziga xos boshlang'ich hujjatlar tizimini shakllantirishni, ularni tuzilishidan tortib, to arxivga

topshirilishiga qadar bo'lgan aylanish grafini belgilashni, shuningdek boshlang'ich hujjatlar asosida tegishli hisob registrlarini yuritish talabini qo'yadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari buxgalteriya hisobi chakana va ulgurji savdo korxonalaridan farqli o'laroq ayrim harakterli xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlarning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchiidan, umumiy ovqatlanish korxonalari ishlab chiqarish, savdo va ovqatlanishni tashkil etish funksiyalarini bevosita birga olib boradi. Ishlab chiqarish korxonalari singari umumiy ovqatlanish korxonalari tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaradilar. Lekin ushbu mahsulotlar umumiy ovqatlanish korxonasining savdo shaxobchalari orqali shu kunning o'zidayoq asosan naqd hisob-kitoblar asosida iste'molchilarga (aholiga) sotiladi. Umumiy ovqatlanish korxonalari nafaqat o'zlari ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan birga, chetdan olgan tovarlarni ham qayta ishlovsiz sotishlari mumkin. Bundan tashqari umumiy ovqatlanish korxonalari o'zlari ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni, yarim tayyor mahsulotlarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ulgurji hamda mayda ulgurji tarzda ham sotadilar. Boshqa savdo korxonalari naqd pulsiz hisob-kitoblar yo'li bilan sotilgan tayyor mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlarning hajmi umumiy ovqatlanish korxonalarining ulgurji tovar aylanmasi, mayda ulgurji tarzda naqd va naqdsiz hisob-kitoblar yo'li bilan turli muassasalarga (masalan, bolalar bog'chalariga, shifoxonalarga va boshqalarga) oxirgi iste'mol uchun sotilgan mahsulotlar chakana tovar aylanmasi hisoblanadi. Demak. umumiy ovqatlanish korxonalar tovar aylanmasi o'z ichiga chakana hamda ulgurji tovaraylanmalarini oladi.

Ikkinchiidan, ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajarish umumiy ovqatlanish korxonalarida turli javobgarlik markazlari tashkil qilishni taqozo etadi. Bunday javobgarlik markazlariga omborlar, oshxona, savdo zali, bufetlar kiradi.

Omborlarning asosiy funksiyasi ishlab chiqarish va sotish uchun zaxiralarni sifatli saqlash, ularni o'z vaqtida ishlab chiqarishga yetkazib berish hisoblanadi.

Ombordagi tovar-moddiy boyliklar uchun ombor mudiri moddiy javobgar shaxs hisoblanadi.

Oshxonaning asosiy funksiyasi korxonaning taomlar tayyorlash, ularni savdo zallari hamda bufetlarga buyurtma asosida yetkazib berish va sotish hisoblanadi.

Bufetlarning asosiy funksiyasi oshxonada tayyorlangan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, chetdan sotib olingan tovarlarni sotish hisoblanadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida ularning turiga, faoliyatining katta-kichikligiga qarab moddiy javobgarlikning yakka va brigada shakllaridan foydalaniladi. Umumiy ovqatlanish korxonasi rahbariyati barcha moddiy javobgar shaxslar bilan moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzishi ular faoliyati ustidan nazorat olib borishi lozim.

Uchinchidan, umumiy ovqatlanish korxonalarida tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun masalliq va boshqa tovarlarni turlicha baholarda shartnomalar tuzish orqali turli ta'minotchilardan sotib olish. Aksariyat tovarlarni, jumladan, non va non mahsulotlari, go'sht, sut, qatiq, meva- sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dehqon bozorlaridan kelishuv baholarida naqd pulga sotib olish zaruratini qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining maxsus yo'riqnomasiga muvofiq umumiy ovqatlanish korxonalariga ularning mulk shaklidan qat'i nazar savdo tushumining oylik miqdorini 60 foizigacha bo'lgan qismini ushbu maqsadlarda ishlatishga ruxsat etiladi. Savdo tushumi hisobidan masalliqni bozorlardan sotib olish korxonalar rahbari tomonidan tayinlangan hisobdor shaxs orqali amalga oshiriladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining asosiy daromadi savdo ustamalaridan iborat bo'ladi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo ustamalari ikkita turga bo'linadi:

-sotib olingan tovarlarga qo'yilgan savdo ustamalari. ushbu ustamalar miqdorini umumiy ovqatlanish korxonalarida talab va taklifga ko'ra mustaqil belgilaydilar. Barcha sotib olinadigan masalliq va tovarlar sotib olish qiymatida

(tannarxida) ushbu savdo ustamolari bilan birgalikda omborlarga qabul qilinadi va hisobga olinadi;

-tayyorlangan ovqatlarga qo'yilgan ustamalar. Ushbu ustamaning miqdori umumiy ovqatlanish korxonalarining turlari, tabaqalariga qarab turlicha bo'ladi. Eng yuqori umumiy ovqatlanish ustamolari lyuks va oliy tabaqali umumiy ovqatlanish korxonalarida (restoranlarda), eng past miqdordagi ustamalar esa III- tabaqali zavod va fabrikalarning, ta'lim dargohlarining oshxonalarida qo'yiladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini tashkil etish va umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yuridik va jismoniyshaxslarni ro'yhatdan o'tkazish va ular tomonidan savdo faoliyatini amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002-yil 16-noyabrdagi 407-son qarori bilan tasdiqlangan «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yhatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom», Shuningdek 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qaror bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlari (xizmatlari)ni ishlab chiqarish va sotish qoidalari» bilan tartibga solingan.

## **1.2.Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit tekshiruvini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.**

Respublikamizda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish, sodir bo'lgan xo'jalik muomalalarini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlash ular amaliyotida auditorlik xizmatidan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditorlik ichki va tashqi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ichki audit korxonaga rahbariyatiga bo'ysinuvchi va xodimlar shtatida hisobga olinadigan shaxsalar tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi savdo korxonasida aktivlarning but saqlanishini, xodimlarning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishni tekshirish hisob siyosatiga rioya etilishini ta'minlaydigan usul chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tashqi audit esa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, maxsus litsenziyaga ega bo'lgan mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladi.


Shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda tashqi audit xizmatini tashkil etish va samaradorligini oshirish uning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bevosita bog'liq. Mazkur korxonalarda auditorlik tekshiruvini o'tkazishning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi me'yoriy hujjatlar quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- auditni tashkil qilish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish;
- audit natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;
- auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

Mamlakatimizda auditorlik faoliyatini huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi tahrirdagi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunlar, «Maxsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida»gi NIZOM 2003-yil 25-dekabrda 567-sonli qarori asosidagi o'zgartirishlar bilan va boshqa me'yoriy hujjatlar tashkil qiladi. Bu me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish mamlakatimizda

auditorlik firmalarining mavqeini oshirish va audit xizmati bozorini rivojlantirishga imkon yaratadi.

“Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni auditorlik firmasi huquq va majburiyatlarini, shuningdek auditorlik tekshiruvini o’tkazish tartibini ifodalaydi. Jumladan bu qonunning 9-moddasiga ko’ra, «auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning to’g’riligi va qonun hujjatlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida xo’jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog’liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir»<sup>5</sup>.



**3-chizma. Moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o’tkazishning umumiy konsepsiyasi.**

<sup>5</sup> „Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonun 9-modda.

Bu chizmadan ko'rinib turibdiki, unda moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning umumiy konsepsiyasi audit o'tkazish konsepsiyasi, auditorlik qoidalari va auditorlik faoliyati standartlari kabilarga ajratilib ko'rsatiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xizmat ko'rsatish korxonalarida auditorlik tekshiruvining asosiy vazifasini quyidagi taribda belgilash mumkin:

- xizmat ko'rsatish korxonasida amaldagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tekshirish;
- savdo muomalalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish;
- xizmat ko'rsatish korxonasida amalga oshirilgan hisob-kitoblarning aniqligini tahlil qilish;
- moddiy-moliyaviy resurslardan oqilona foydalanilishini tekshiruvdan o'tkazish;
- ulgurji va chakana savdo korxonalarini moliyaviy hisobot shakllarida aks ettirilganligini aks ettirish.

Bozor munosabatlarida xizmat ko'rsatish korxonalarida tashqi auditorlik tekshiruvini tashkil etishning asosiy maqsadi amalga oshirilgan savdo va xizmatlar muomalalarini mavjud me'yoriy hujjatlarga mosligini va ularda moliyaviy hisobotning tuzilish tartibini to'g'riligini aniqlashdan iborat. Moliyaviy hisobotni tashqi auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda quyidagi konsepsiyaga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, mazkur Qonunga muvofiq, quyidagi xo'jalik sub'ektlari bir yilda bir marotaba majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishlari shart.

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kreditorlik tashkilotlari;
- sug'urta tashkilotlari;

- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;
- ustav kapitalida davlatga tegishli ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.

Auditorlik tashkilotlari buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish, korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil etish, buxgalteriya va soliq hisobotlariga oid maslahatlar berish, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitob va deklaratsiyalarni tuzish kabi professional xizmatlarni ham ko'rsatadilar.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditorlik standartlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Do'stmuratov R.D.ning ta'kidlashicha, «auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS) – bu barcha auditorlik tashkilotlari o'zlarining professional faoliyatlari jarayonida rioya qilishlari lozim bo'lgan yagona asosiy tamoyillardir» (2.48., 44b.).

Umuman olganda, auditorlik standartlari audit o'tkazish tartib-qoidalarini va ketma-ketligini ifodalaydi. Ularni ichki audit, tashqi audit, xalqaro audit, milliy audit va auditorlik firmasining audit standartlariga bo'lish mumkin.

Auditorlik faoliyatining xalqaro va milliy standartlarini tadqiq etgan holda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda tashqi auditorlik tekshiruvini tashkil etishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Respublikamizda qabul qilingan auditorlik faoliyatining milliy standartlari xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, 20 tani tashkil etadi. Ularda auditni rejalashtirish qoidalarini, mijozning xo'jalik faoliyati bilan tanishish tartibi, auditorlik xatarini belgilash, auditorlik tekshiruvini o'tkazishning xususiyatlari, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasiga qo'yiladigan talablar va boshqalar ifodalagan. Shunga qaramasdan, respublikamizda auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish uslubini ishlab chiqish borasida ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, Norbekov.D.E.ning



aytishicha, «auditorlik tashkilotlarining faoliyatini kengaytirish auditorlik kompaniyalari orqali amalga oshiriladi. Bu kompaniyalarda tarmoq harakteridan kelib chiqqan holda auditorlarni tayyorlash davr talabi bo'lib qolmoqda».

Biz ushbu muallifning fikrlarini qo'llab-quvatlaymiz. Haqiqatdan ham ilmiy tadqiqotlarning tasdiqlashicha, hozirgi kunda respublikamizda xizmat ko'rsatish korxonalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada savdo sohasida etarlicha bilim va amaliy tajribaga ega auditorlarni tayyorlash zarur.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida respublikamiz xizmat ko'rsatish korxonalarida kompleks auditni tashkil etish tartibini belgilash, uning tarkibini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida kompleks auditorlik tekshiruvini o'tkazish ularda ularda qo'llaniladigan audit shakllariga bevosita bog'liq. Audit shakllariga tasdiqlovchi, maqsadli va auditning tavakkalchilikka asoslangan shakllarini kiritish mumkin.

Auditning tasdiqlovchi shaklida sodir bo'lgan savdo muomalalari va savdo jarayonlari tekshiriladi. Auditning bunday shaklida ichki, tashqi, moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik auditi turlari keng foydalaniladi.

Auditning maqsadli yoki yo'naltirilgan shakli ma'lum maqsad va vazifalarga qaratilgan bo'ladi. Xizmat ko'rsatish korxonalari o'z rivojlanish yo'nalishlarini belgilamoqchi yoki investitsiyalarni ma'lum shaklda (xom-ashyo, tovar, pul) jalb qilmoqchi bo'lsa auditning mazkur shaklidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xizmat ko'rsatish korxonalari shuningdek, savdo korxonalari o'z faoliyatlarini tavakkalchilik asosida yuritadilar. Ammo, tavakkalchilik har doim ham ijobiy samara beravermaydi. Shunday paytlarda tavakkalga asoslangan audit shaklini qo'llash zaruriyati tug'iladi. Ushbu audit shakli tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ko'proq foyda olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tovarlar muomalarini tekshirishda auditorlar tanlama audit usulidan keng foydalanishlari lozim. Tanlash hajmiga auditorlik dalillarining etariligi, o'z vaqtidaliligi va ishonchliligini ta'minlash muammosi bevosita bog'liq. Bunda auditorlar qanday tadbirlarni tanlashni va ularni qachon bajarishni aniqlab olgach, tanlovdagi birliklar miqdori, ularning hajmi, asosiy belgilari kabilarni aniqlaydi.

Auditorlar tanlovning turli usullaridan foydalanadilar. Ularning orasida asosiylari sifat miqdoriy tanlov usullaridir. Tanlab kuzatishning mazkur usullari asosida statistik tanlov tashkil etiladi.

Auditor yordamchisining tanlov natijasida olgan axborotlari auditor uchun ham foydalidir. Bu axborotlar unga korxonaning moliyaviy holatini baholashda yordam beradi. Bundan tashqari buxgalteriya yozuvlarini noto'g'ri rasmiylashtirilganligi to'g'risida to'plangan auditorlik dalillari auditorga korxonaga taqdim etiladigan maxsus xatda ichki nazorat tizimini mustahkamlashga doir tavsiyalar berishga ko'maklashadi.

Xizmat ko'rsatish korxonasi bilan auditorlik firmasi o'rtasidagi huquqiy-iqisodiy munosabatlar ular o'rtasida tuziladigan shartnomalar orqali tartibga solib boriladi. Auditorlik shartnomasi audit o'tkazishga asos hisoblanib, xizmat ko'rsatish korxonasi va auditorlik firmasining huquq va majburiyatlarini ifodalovchi huquqiy hujjat hisoblanadi. Auditorlik shartnomasi qanchalik to'g'ri va asosli tuzilgan bo'lsa, uning samarasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Mazkur muomalalarga asosan xizmat ko'rsatish korxonalarining ma'lum faoliyati auditorlik tekshiruvidan o'tadi. Bunday tekshiruvnig ob'ektlari bo'lib xizmat ko'rsatish muomalalari, sotish muomalalari, debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha hisob-kitoblar, pul-valyuta muomalalari, bank muomalalari, byudjet bilan hisoblashishlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Auditorlik xizmatini ko'rsatishga mo'ljallangan auditorlik shartnomalariga asosan mijozlarga har oyda yoki har chorakda xizmat ko'rsatiladi. Bunday xizmatlar xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining hisob siyosatini belgilash, joriy hisobni

yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish, soliqlarni to'g'ri hisoblash kabi muomalalar bo'lishi mumkin.

Auditorlik shartnomasini tuzishda ma'lum ketma –ketlikka rioya qilish lozim. Tekshiruvdan avval xizmat ko'rsatuvchi korxonaning faoliyati atroflicha o'rganiladi, auditning maqsadi, vazifalari va ob'ekti aniqlanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda kompleks auditorlik tekshiruvining samaradorligini ta'minlash uni to'g'ri rejalashtirishni talab etadi. Audit rejasini tuzish korxonada faoliyatini tekshirishga rozilik berish va shartnoma tuzishdan oldin tuziladi. Audit rejasi ixcham tuzilgan va tushunarli bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda kompleks auditorlik tekshiruvini tashkil etish va rejalashtirish bosqichlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining 3-sonli «Auditni rejalashtirish» nomli milliy standartning 1.1.-bandida auditni rejalashtirishning quyidagi bosqichlari belgilab qo'yilgan:

- dastlabki rejalashtirish;
- auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish;
- auditning umumiy dasturini tayyorlash va tuzish (1.16., 103 b.).

O'razov K.B.ning ta'kidlashicha, «auditni tashkil etishni shartli ravishda quyidagi to'rtta bosqichga bo'lish mumkin:

- auditni boshlashga qadar bo'lgan bosqich;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish bosqichi;
- auditorlik tekshiruvi natijalarini jamlash va rasmiylashtirish bosqichi;
- auditorlik tekshiruvi natijalarini tadbiq etish bosqichi;

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit yuqoridagi tartibda tashkil etilsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

## **II-BOB. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobi va uni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.**

### **2.1.Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tartibi.**

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlar shuningdek xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ham buxgalteriya hisobi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida va tartib bilan yuritilishini talab etadi

Biz xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni yuqorida bir necha guruhlariga ajratdik, demak har bir xizmat ko'rsatuvchi korxonani buxgalteriya hisobini yuritish tartibi turlicha bo'ladi. Shuning uchun biz har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish tartibini ko'rsatib o'tamiz.

Savdo korxonasi bugungi kunda xizmat ko'rsatishda yetakchi soha hisoblanadi. Shuningdek bu kabi korxonalarda ham buxgalteriya hisobini yuritish tartibi quyidagicha.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- -savdo korxonalarida tovar-operatsiyalari hisobini yuritish;
- -tovar-moddiy boyliklarni sotib olish qiymati (tannarxi) va sotish baholarini aniqlash;
- -savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish;
- -tovarlarning ombor hisobini yuritish;
- -savdo korxonalarida tovarlarning kirimini hisobini yuritish;
- -tovarlar sotilishi va boshqa chiqimlarning hisobini yuritish;
- -tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiyasi va uning natijalarining hisobini yuritish;
- -daromadlar hisobini yuritish;
- -xarajatlar hisobini yuritish;
- -korxonada yakuniy moliyaviy natijalarning hisobini yuritish;
- -savdo korxonalarida soliq to'lovlarining hisobini tashkil etish;

- -savdo korxonalarida majburiy ajratmalar va ushlanmalarning hisobini yuritish.

Savdo korxonalarida odatda ikki xil ko'rinishda tashkil etiladi ya'ni chakana savdo va ulgurji savdoga bo'linadi. Shuningdek ulardagi tovar operatsiyalari ham farq qiladi. Ulgurji savdo korxonalarining asosiy funksiyasi chakana savdo korxonalariga, shuningdek, tovarlarni o'zlarining xo'jalik maqsadlarida ishlatadigan boshqa tarmoq xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga naqd pulsiz shaklda sotish hisoblanadi. Buning uchun ularning o'zlari oldin tovarlarni turli ishlab chiqarish korxonalarida va boshqa manbalardan sotib oladilar. Tovarlarni sotishgacha ulgurji savdo korxonalarida ularni o'zlarining omborlarida saqlaydilar va xaridorlarga tuzilgan shartnomalarga muvofiq sotadilar.

Chakana savdo korxonalariga tovarlar bevosita ishlab chiqarish korxonalaridan, tayyorlov-ulgurji savdo korxonalaridan, xususiy tadbirkorlardan va boshqa manbalardan kelib tushadi. Vositachilar orqali yetkazib berilgan tovarlarni oxirgi iste'molchilarga yetkazish, ularning iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini qondirish hisoblanadi.


Respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zahiralar»ga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish qiymati, ya'ni tannarxi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1.Sotib olishda tovar yetkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan baho.

2.Sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlar. Bularga sotib olish bilan bog'liq brokerlik xizmatlari, komission (vositachilik) xarajatlari tashib keltirish xarajatlari (temir yo'l, suv, havo yo'llari va boshqa transport tashkilotlarining yuklash, tushurish va yetkazib berish xarajatlari), tovarlarni sertifikatlash xarajatlari va shu kabilar kiradi;

3.Bojxona to'lovlari. Bojxona to'lovlariga aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona boji, bojxona yig'imi kiradi. Bu xarajatlar cheteldan import qilingan tovarlarga taalluqli bo'lib ularning summalari bojxona yuk deklaratsiyalarida ko'rsatiladi.

Savdo korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashirish. Tovarlarining sotib olinishi va kirimini hujjatlashtirish ularning yuqorida keltirilgan kelib tushish manbalariga hamda ularni tashib keltirish transportining turiga bog'liq.



4-chizma. Tovarlarining sotilishi.

Tovarlarini jo'natishda ta'minotchilar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

-yuklash hujjatlari – bular temir yo'l nakladnoyi, tovar-transport nakladnoyi;

-tovarlarni sifat hujjatlarini tasdiqlovchi hujjatlar – bular muvofiqlik sertifikat, spesifikasiyalar, laboratoriya tahlili dalolatnomasi, o'lchov tahlili dalolatnomasi, orov yorliqlari;

-hisob-kitob hujjatlari – bular belgilangan shakllarda tuzilgan schyot-fakturalar va to'lov talabnomasi.

Tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2003-yil 7-maydagi 62- son bo'yrug'i bilan tasdiqlangan «Tovar-moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalarni berish va ishonchnomalar bo'yicha ularning berish tartibi to'g'risida Nizom» va unga Moliya Vazirligining 2003-yil 28- oktabrdagi 121-sonli buyrug' bilan kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovarlarining ombor hisobini yuritish. Savdo korxonalarida barcha moddiy-javobgar shaxslar tovarlarining ombor hisobini yuritadilar. Ombor hisobi natural miqdor ko'rinishda tovarlarining nomi, navi, soni va baholari bo'yicha kartochkalarda yoki maxsus kitoblarda yuritiladi. Ushbu hisob registrlariga

yozuvlar tovarlarning kirimi va chiqimiga guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar asosida tayyorlanadi.

Tovarlarning ombor hisobini yuritish ularni omborlarda saqlashning qabul qilingan usullariga bog'liq. Tovarlar omborlarda, odatda, har bir kelib tushgan partiyalar yoki ularning nomlari, navlari, kelib tushish baholari bo'yicha saqlanadi. Ushbu belgilariga qarab tovarlarning ombor hisobi partiyali va navli usullarda yuritilishi mumkin.

Savdo korxonalarida tovarlarning kirimini hisobini yuritish. Ulgurji savdo korxonalarida 21-son BHMS ga muvofiq tovarlarning omborlarga kiriminin sintetik hisobi ikki usulda olib borilishi mumkin.

1-usul. Omborlarga kirim qilingan tovarlarni bevosita 2910 «Omborlardagi tovarlar» schyotida hisobga olish usuli. Ushbu schyotda tovarlar uzluksiz hisob tizimi asosida sotib olish baholarida aks ettiriladi. Qiymat tamoyiliga muvofiq tovarlarning tannarxiga ularni ta'minotchilardan sotib olish baholaridagi qiymati va sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar kiritiladi.

2-usul. Tovarlarini sotib olinishini maxsus schyotda, ya'ni 1510 «Tovar-moddiy boyliklarni sotib olinishi» schyotida hisobga olish usuli. Ushbu schyotda tovarlar uzluksiz hisob tizimiga muvofiq sotib olish baholarida, ya'ni tannarxi bo'yicha aks ettiriladi. Qiymat tamoyiliga muvofiq tovarlarning tannarxiga ularni ta'minotchilardan sotib olish baholaridagi qiymati va sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar kiritiladi. Sotib olishga doir barcha xarajatlar oldin 1510 «Tovar-moddiy boyliklarni sotib olinishi» schyotida to'planadi va tovarlar omborga kirim qilingach ushbu schyot 2910 «Ombordagi tovarlar» schyotiga yopiladi.

Tovarlar sotilishi va boshqa chiqimlarning hisobini yuritish. Savdo korxonalarini tovarlarni o'zlarining distribyutorlariga, shuningdek boshqa tovarlarni o'z xo'jalik maqsadlarida foydalanuvchi tashkilot va muassasalarga tuzilgan shartnomlar asosida kelishuv baholarida yirik va mayda partiyalar bilan naqd va naqdsiz pulga hisob-kitoblar asosida sotadilar.

**1-jadval.****Tovarlar inventarizatsiyasi natijalarini schyotlarda aks ettirish tarti**

№	Operatsiyalarning mazmuni	summa	Schyotlar korrespondensiyasi		Asos
			debet	kredit	
1	Inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar summasi (hisob baholaridagi qiymati)	10000	2910- 2990	9390	Taqqoslama, dalolatnoma, qaror
2	Inventarizatsiyada tovarlarni sotish baholari oshirilishi; sotish baholarining pasaytirilishi	100000	2910- 2990 3190	6230 2910- 2990	Qayta baholash dalolatnomasi
3	Inventarizatsiyada aniqlangan kamomadlar summmasiga	30000	5910	2910- 2990	Taqqoslama, dalolatnoma, qaror
4	Kamomadlarning qoplanishi: a) Moddiy javobgar shaxs zimmasiga b) Korxonaga zarariga	15000 15000	4730 9430	5910 5910	Qaror, buyruq
5	Inventarizatsiyada aniqlangan kamomad va ortiqchalar o'zaro qoplangan	30000	2910- 2990	2910- 2990	Dalolatnoma, qaror buyruq

Tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiyasi va uning natijalarining hisobini yuritish. 19-son BHMS ga muvofiq tovar va taralar quyidagi hollarda inventarizatsiya qilinishi lozim:

- qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda;
- o'g'rilik, o'zlashtirish va buzilishlar aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong'in va boshqa favquloddagi holatlarda;



- xo‘jalik yurituvchi subyektning tugatilishi, boshqa korxonalar tarkibiga qo‘shilishi va qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa holatlarda.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining tovarlarini sotishdan olingan daromadlari 21-son BHMSga muvofiq 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar schyotining kredit aylanmasidan 9040 «Sotilgan tovarlarning qaytarilishi va 9050 «Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» debet aylanmalari summalarini ayirish yo‘li bilan topiladi.

- -9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromad»;
- -9350 «Qisqa muddatli ijaradan olingan daromad»;
- 9360 «Kreditorlik va deponentlik qarzlari hisobdan chiqarilishidan olingan daromadlar»;
- 9390 - «Boshqa operatsion daromadlar».

Xarajatlar hisobini yuritish. Savdo korxonalarida sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlar deganda sotilgan tovarlar tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar tushuniladi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash tartibi ulgurji savdo va chakana savdo korxonalarida bir-biridan farq qiladi.

ulgurji savdo korxonalarida tovarlar sotib olish tannarxi bo‘yicha uzluksiz tizim asosida hisobga olinishi sababli sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlarni har bir sotish bo‘yicha aniqlash imkoni mavjud bo‘ladi. Schot-fakturalar asosida sotilgan tovarlarni ombor mudirlari javobgarligidan sotib olish qiymati (tannarxi)da chiqariladi hamda unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi»

Kredit 2910 «Ombordagi tovarlar».

Savdo korxonalarining faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini ifodalovchi foyda (zarar)lar ko‘rsatkichlari boshqa turdagi korxonalaridagidek «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to‘g‘risida Nizom»ga muvofiq aniqlanadi. Faqat, har bir foyda ko‘rsatkichini topishda bevosita savdo faoliyatiga doir ko‘rsatkichlar asos qilib olinadi. Chunonchi, savdo korxonalarida tovarlarni sotishdan olingan

foyda(Fs) yoki zarar(Zs) sof tushumdan (St) sotilgan tovarlar tannarxini (S) ayirish orqali topiladi.

Savdo korxonalarida soliq to'lovlarining hisobini tashkil etish.

Savdo korxonalarida yagona soliq to'lovining ob'ekti yalpi tushum hisoblanadi. Savdo korxonalarining yalpi tushumi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- 1) tovarlarni realizatsiya qilishdan sof tushum, ya'ni sof tovar aylanmasi;
- 2) asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar.

## 2-jadval

### Savdo korxonalarida uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 2012-yil uchun soliq stavkalari

	Soliq to'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi,% da
	Umumiy o'zqatlanish korxonalarida	10
	Ulardan:	
	Umumiy ta'lim maktabi, maktab internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarida	8
	Chakana savdo korxonalarida(4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari):	
	Aholisi soni 100 ming va undan ortiq kishidan iborat shaharlarda	4
	Boshqa aholi punktlarida	2
	Borish qiyin bo'lga va tog'liq tumanlarda	
	Ulgurji savdo korxonalarida (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5
	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
	Aholi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	Boshqa aholi punktlarida	2
	Borish qiyin bo'lga va tog'liq tumanlarda	1
	1, 2 va 4-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari), plastic kartalarni qo'llagan holda haqi to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	Belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi

Savdo korxonalari davlatimizning soliq qonunchiligiga ko'ra, maqomi va yuritayotgan faoliyat turlari bo'yicha har xil soliqlar, majburiy ajratmalar, to'lovlar, ushlanmalar va yig'implarni to'laydilar. Chunonchi, chakana savdo' umumiy ovqatlanish. ulgurji savdo korxonalari (ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalaridan tashqari), joylashgan joyi va aholisining soniga qarab, belgilangan stavkalarda soliqqa tortiladigan bazadan yagona soliq to'lovini to'laydilar.

Savdo korxonalarida majburiy ajratmalar va ushlanmalarning hisobini yuritish. Yagona soliq to'lovini to'lovchi savdo korxonalari davlatning maqsadli fondlari (pensiya fondi, yo'l fondi,)ga majburiy ajratmalarni qilmaydilar. Yalpi daromad solig'ini to'lovchi ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji bazakontoralari va ularning hududiy bazalari esa ushbu majburiy ajratmalarni to'lovchilari bo'lib hisoblanadi. 2009-yil 1-yanvardan boshlab ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalari davlatning maqsadli fondlarining har biriga majburiy ajratmalarni sof tovar aylanmasidan 1% miqdorida to'laydilar.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

-umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hisobini tashkil etish;

-umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va ular bo'yicha hisobot tuzish;

Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hisobini tashkil etish. Umumiy ovqatlanish korxonalari omborlarida tovar-moddiy boyliklarning hisobi 2910 "Ombordagi tovarlar"da hisobga olinadi. Umumovqatlanish korxonalarida xuddi chakana savdo korxonalari singari har bir sotilgan tovarlarning, ovqatning tannarxini sotish paytida aniqlab bo'lmaydi. Sotilgan tovarlarning tannarxini aniqlash uchun oy oxirida sotilgan va qoldiq tovarlariga

to'g'ri keladigan savdo va umumiy ovqatlanish ustamolari hisob-kitobi tuziladi. Ushbu hisob-kitob shakl va mazmuni jihatdan chakana savdo korxonalarida tuziladigan hisob-kitob to'liq o'xshaydi. Hisob-kitob asosida topilgan sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi savdo va umumiy ovqatlanish ustamasi summasi sof tushumdan chegirilgach, qolgan summa sotish tannarxini beradi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va ular bo'yicha hisobot tuzish. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini tuzish ushbu korxonlarning ichki tuzilmalariga, ular bo'yicha belgilangan moddiy javobgarlikka va boshqa omillarga bog'liq. Maxsus omborlar, muzlatkich xonalari oshxonalar, savdo zallari va bufetlari bo'lgan yirik umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini tuzish ushbu bo'linmalar bo'yicha alohida-alohida amalga oshiriladi. Kichik umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalari korxonaga bo'yicha umumiy holda amalga oshiriladi, jumladan barcha ichki almashuv operatsiyalari bitta moddiy javobgar shaxs tomonidan turli hujjatlarsiz olib boriladi, masalan tovarlarni ombordan oshxonaga yoki bufetga berilishi va shu kabi boshqa operatsiyalar.

### 3-jadval

#### **Chakana va umumiy ovqatlanish korxonalarida ishning o'rtacha razryadi.**

Korxonalar nomi	Yagon ta'rif setkasi bo'yicha ishning o'rtacha razryadi.
Chakana savdo korxonalar	2
Umumiy ovqatlanish korxonalar uchun:	
Restoran	4
Kafe	3
Choyxona	2
Oshxona	2
Boshqa turdagi korxonalar (oshxona mavjud bo'lmaganda)	2
Kafeteriy, kichik oshxona, bufet	2

Ta'minotchilardan tovarlar schot-fakturalar, kuzatuv va sifat hujjatlari asosida son va sifat jihatidan kirim qilinadi.

Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish tartibini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- avtotransport vositalari va ular ish faoliyatining hisobini tashkil etish;
- avtotransport vositalarini baholash;
- avtotransport vositalari holati va harakatini hisobini yuritish;
- avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari hisobini tashkil etish;
- avtomobil yoqilg'ilarining hisobini tashkil etish;
- avtomobil uchun ehtiyot qismlarining hisobini yuritish.

Avtotransport vositalari va ular ish faoliyatining hisobini tashkil etish. Avtotransport vositalarining tasnifi, tavsifi va baholanishi avtotransport korxonalarida moddiy-texnika bazasida avtotransport vositalari bosh ro'lni o'ynaydi. Ularsiz avtotransport korxonalarida o'zlarining yuk tashish, yo'lovchi tashish hamda boshqa ish (xizmat)lardan iborat bo'lgan asosiy faoliyatini yuritish olmaydilar. Shu bois ham avtotransport korxonalarida ATV larning yetarli miqdorda mavjudligi, ularning butligi, ishga yaroqligi yangilanib turishi, shuningdek har bir avtomobil ish faoliyati qat'iy hisobini yuritish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Avtotransport korxonalarida ixtiyorida ATVlarni buxgalteriya hisobi ob'ekti sifatida turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin.

Ishlatilish maqsadiga ko'ra avtotransport korxonalarida ATVlari yo'lovchi tashish, yuk tashish va maxsus ishlarga mo'ljallangan bo'ladi.

Yo'lovchi tashishga mo'ljallangan ATVlarga avtobuslar, mikroavtobuslar hamda taksi sifatida ishlatiladigan yengil avtomobillar kiradi.

Yuk tashishga mo'ljallangan ATVlarga bortli, furgonli, o'zi to'kgich (samosval), tortgichli avtomashinalar, shuningdek ularning tirkamalari va yarim tirkamalari misol bo'ladi.

Maxsus ish (xizmat)larni bajarishga mo'ljallangan ATVLarga suv, sut, yoqilg'i, non va boshqa turdagi yuklarni tashuvchi, shuningdek maxsus ishlarni, masalan qurilish moslamalari va konstruksiyalarini ko'tarish, sindirish, yanchish mashinalari, yong'in o'chirish, axlat tashish, asfalt yo'llarni qor va muzlardan tozalash, supirish, suv sepish kabi ishlarni bajaruvchi avtomobillar kiradi. Barcha turdagi ushbu ATV ishlab chiqilgan joyi, nomi, markasi, iste'mol qiladigan yoqilg'i turiga ko'ra bir- biridan farqlanadi.

Ishlab chiqilgan joyiga ko'ra ATV xorijiy mamlakatlarda hamda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarga bo'linadi. Chunonchi, respublikamiz avtotransport korxonalarida Rossiya, Belorussiya. Germaniya, Yaponiya va dunyoning boshqa mamlakatlarida, shuningdek Respublikamizning o'zida ishlab chiqilgan 100 dan ortiq nomdagi va turli markalardagi ATVlar ishlatilmoqda.

Iste'mol qiladigan yoqilg' turiga ko'ra ATVlar benzin (B), dizel yoqilg'isi (D), shuningdek suyultirilgan gaz (SG) hamda siqilgan tabiiy gaz ishlaydigan avtomobillarga bo'linadi.

Avtotransport vositalari holati va harakatini hisobini yuritish. Avotransport korxonalarida ATVlar holati va harakatining sintetik hisob bosh kitobda ochiladigan 0160 «Transport vositalari» schyotida yuritiladi. ATVlar holati va harakatining tahliliy hisobi ularning har biriga ochilgan hisob kartochkalarida yoki «Asosiy vositalar hisob-kitobida» olib boriladi. Hisob kartochkalari avtotransport korxonasida har bir ATVga ro'yxatidan o'tgandan so'ng ochiladi. Ushbu kartochkada ATVning barcha texnik ma'lumotlari, uning sotib olinishi (bepul olinishi)ni tasdiqlovchi hujjatning tartib raqami, sanasi, shuningdek boshlang'ich qiymati, tiklangan qiymati, jamlanib boruvchi eskirish summasi, qoldiq qiymati hisobot davrlari bo'yicha aks ettiriladi.

Avtotransport korxonalarida ATVlar asosan sotib olish, bepul olish, ta'sischi badali sifatida kiritish evaziga ko'payadi.

ATVlarni sotib olinishi buxgalteriya hisobida tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlar asosida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi.

ATVlarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan bepul olinishi tuzilgan shartoma shartlariga ko'ra va schot-fakturalar asosida avtotransport korxonasi

balansiga kirim qilinadi. Buxgalteriya hisobida ushbu operatsiyaga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 0160 «Transport vositalari»;

Kredit 8530 «Bepul olingan mulk».

Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarini hisobini tashkil etish. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralariga quyidagilar kiradi:

- yoqilg'i - benzin, solyarka, suyultirilgan gaz, siqilgan tabiiy gaz;
- yog'lash materiallari - aftol, solidol, litol va boshqalar,
- ehtiyot qismlar va agregatlar - dvigatel, akkumulyator, avtoshina, resorlar, porshin, gilza va boshqalar;
- xo'jalik inventarlari - turli o'lchamli kalitlar, domkratlar, maxsus kiyim-kechaklar, xalatlar, poyafzal va boshqalar;
- boshqa materiallar- temir-tersaklar, simlar, bo'yoqlar, doka, bo'z
- va boshqa xilma-xil materiallar.

Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari hisobini to'g'ri va o'z vaqtida yuritishning muhim shartlaridan biri bo'lib ombor xo'jaligi, ustaxona (sex), garaj, avtomobillarga yoqilg'i qo'yish shoxobchasi va boshqa yordamchi bo'linmalar ishini ratsional tashkil qilish hisoblanadi.

#### 4-jadval

#### Avtotransport tashkilotlarida avtomobil tashuvlar tannarxida xarajalar tarkibi, foizda.

№	Kalkulyatsiya moddalari	Solishtirma miqdori, %
1	Avtomobil yonilg'isi	41,6
2	Xaydovchilarning asosiy va qo'shimcha ish xaqi	16
3	Avtomobollarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash	13,7
4	Avtomobil shinalari	11,4
5	Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	6,4
6	Ishlab chiqarish bo'yicha ustama xarajatlari (umumishlab chiqarish xarajatlari)	5,6
7	Harakatlanuvchi tarkib bo'yicha amortizatsiya ajratmalari	4,4
8	Moylash va boshqa ishlatish materiallari	
	Jami	100,0

Avtomobil yoqilg'ilarining hisobini tashkil etish avtotransport korxonalari ishlab chiqarish zaxiralari tarkibida yoqilg'i-moylash materiallari alohida o'rin tutadi. Shuningdek, ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxida yoqilg'i va moylash materiallari xarajatlarning hissasi 45-55 foizni tashkil qiladi.

Shu bois ham, avtotransport korxonalarida yoqilg'i-moylash materiallarini tejab-tergab sarflash, ularning noratsional chiqimlariga yo'l qo'ymaslik avtotransport xizmatlari tannarxini kamaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarida hisob tizimi avtomobil yoqilg'ilari va yog'lash materiallarini turgan joylari hamda turlari bo'yicha aks ettirish talablariga javob berishi lozim. Buning uchun buxgalteriya hisobi ishchi schyotlar rejasida quyidagi maxsus schyotlarni ochish maqsadga muvofiq:

1030 «Ombordagi yoqilg'i»

1030 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i».

Avtomobil uchun ehtiyot qismlarining hisobini yuritish. Avtomobillar uchun juda ko'p ehtiyot qismlar ishlatiladi. Ularni turli belgilari, masalan, nomlari, markalari, modeli, turgan joyi, kelib tushish manbalari, ishchi holati, yaroqlilik darajasi, xizmat muddatlarida hamda boshqa jihatlari bo'yicha tasniflash mumkin. Ehtiyot qismlarining ushbu belgilari bo'yicha tavsifi, odatda, avtotransport korxonalarida qo'llaniladigan «Ehtiyot qismlar klassifikatori»da keltiriladi.

Turgan joyiga ko'ra ehtiyot qismlar ombordagi va foydalanishdagi ehtiyot qismlarga bo'linadi.

Ombordagi ehtiyot qismlari, o'z navbatida, yaroqlilik darajasiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- yangi ehtiyot qismlar;
- oldin foydalanishda bo'lgan, lekin yaroqli holdagi ehtiyot qismlar;
- foydalanishga yaroqsiz ehtiyot qismlar.

Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobi vazifalariga quyidagilar kiradi:



-tovar aylanmasining miqdorini hujjatli asosga ega bo'lishligini ta'minlash, uni hisob registrlari va hisobotlarda to'g'ri aks ettirish;

-tuzilgan shartnomalarni bajarilayotganligini, tovarlarni kirim chiqimiga tegishli bo'lgan boshlang'ich hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirilganligini ta'minlash;

-tovarlarning sotish, baholarini to'g'ri shakllanganligini nazorat qilish;

-tovarlarni xaridorlarga yetkazishgacha bajarilgan transpartirovka, saqlash, o'rash, qadooqlash, saralash va shu kabi qo'shimcha jarayonlar majmuasini hujjatlarda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish, ularga sarflangan mablag'larni aniq summasini ifodalash;

-tovar-pul munosabatlari orqali pul mablag'larini to'plash.

-savdo korxonalarida yuz beradigan tovar-pul operatsiyalarini o'z vaqtida, to'g'ri rasmiylashtirish, guruhlash va jamlanishini ta'minlash;

-amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining qonuniyligi va tovar moddiy boyliklar butligini ta'minlash;

-tovar-moddiy boyliklarning saqlanish joylarida ombor hisobini belgilangan usul va shakllarda, shuningdek, hisob registrlari hisoblangan kitob, kartochka yoki qaydnomalarni o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

-barcha moddiy javobgar shaxslar faoliyati ustidan qat'i nazoratni olib borish, moddiy javobgar shaxslar bilan tuzilgan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar shartlariga to'liq amal qilinayotganligi to'g'risida rahbariyatga haqqoniy axborotlarni berib borish;

-tovar –moddiy boyliklar bo'yicha baho siyosatini to'g'ri shakllantirish va ushbu siyosatni to'g'ri amalga oshirilishi ustidan doimiy nazoratni olib borish;

-savdo shaxobchalari va omborlardagi tovar-moddiy boyliklarni real holatini belgilangan muddatlarda inventarizatsiyasini o'tkazib turish;

Savdo korxonalarini bir-birlaridan tovar operatsiyalarini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish bo'yicha ham farq qiladi. Jumladan, ulgurji savdo korxonalaridagi tovar operatsiyalarining xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, bironta tovar-moddiy boylikning kirim va chiqimi bu tegishli

hujjatlarni rasmiylashtirmasdan turib amalga oshirilmaydi. Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida, aksincha, har bir tovar operatsiyasini hujjatlashtirib bo'lmaydi. Omborlardan tovarlar faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida sotiladi, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda esa tovarlar asosan naqd pulga, ayrim hollarda kichik ulgurji shaklda naqdsiz sotilishi mumkin.

Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining yuqorida tavsiflangan xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tovar-moddiy boyliklar

Hisobini uzluksiz tizimini qo'llash zarurati va shart-sharoitlari mavjud. Ushbu tizimning mohiyati shundaki tovar-moddiy boyliklarning barcha kirim va chiqimining hisobi aniq boshlang'ich hujjatlar asosida yuritiladi. Jumladan, tovarlarning sotilishi xaridor bilan tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan baholarda ularni sotilganligiga guvohlik beruvchi schot-fakturalar asosida hisobga olib boriladi. Sotilgan tovarlarning tannarxi ularning kirim hujjatlarida ko'rsatilgan baholari bo'yicha aniq hujjatlar asosida topiladi va hisobga olinadi. Bu, o'z navbatida, sotishdan olingan daromadlarni har bir tovar bo'yicha hujjatli asosda topish imkonini beradi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida har bir tovarning sotilishini qat'iy hujjatlashtirish imkoni mavjud bo'lmasligi ularda TMBlar hisobining davriy tizimini qo'llashni taqozo etadi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri tovar-moddiy boyliklarning holati va harakati bo'yicha sintetik va tahliliy hisobni yuritish hisoblanadi.

## **2.2 Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari.**

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini rivojlantirish har bir korxonada tashkilotning vazifasi hisoblanadi.

Korxonada va tashkilotlar xo'jalik faoliyatini idora etish maqsadida ma'lumotlarni olish, ularni guruhlab, boshqaruvni ushbu ko'rsatkichlar bilan ta'minlash, kelajakda korxonada tashkilotlar faoliyatiga baho berish uchun, hisob-kitob hujjatlarida aks ettirish yo'li bilan o'z faoliyatini rivojlantirib boradilar.

Mamlakatimiz va xorij davlatlari buxgalteriya hisobi bo'yicha iqtisodchi olimlar o'z ishlarida buxgalteriya hisobi mohiyati bo'yicha har xil talqinlar beradilar. Masalan, M.Umarova, O'.Eshboev va K.Axmadjonov fikrlari bo'yicha: «Buxgalteriya hisobi bu kundalik va umumiy ma'lumotlar olish maqsadida ayrim korxonada, aksiyadorlik jamiyati, muassasa, tashkilot va boshqalarning xo'jalik faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat». Bizning fikrimizcha, bu buxgalteriya hisobi mohiyati va maqsadini to'liq yoritmaydi, chunki turli foydalanuvchilarni to'liq ma'lumot bilan ta'minlash maqsadida hisob barcha korxonalarda olib borilishi lozim.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining boshqaruvi samaradorligini oshirish, moliyaviy holatini yaxshilash ular xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni son jihatdan tavsiflash, bu ko'rsatkichlar to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayda etish va umumlashtirish hamda hujjatlarda rasmiylashtirishni taqozo etadi. Mazkur masalalarni xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda bevosita xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish orqali muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish ushbu korxonalarda hisob-kitob ishlarini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobining hozirgi holatini tahlil qilish uchun uni takomillashtirishdagi mavjud muammolarni quyidagilarga ajratish imkonini beradi.

-buxgalteriya hisobining konseptual asoslarini rivojlantirishga doir muammolar;

-buxgalteriya hisobi borasidagi nazariy va amaliy muammolarni aniqlash;

-buxgalteriya hisobining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- buxgalteriya hisobining tashkiliy muammolarini belgilash.

Bitiruv malakaviy ishiga aloqador korxonalar ya'ni xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobining konseptual asoslarini rivojlantirishga doir muammolar ularda oqilona hisob siyosatini tashkil etish, yangi ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish, tovar (ish, xizmat)ni sotish bahosini shakllantirish, soha xususiyatlariga asoslangan holda moliyaviy, statistik, soliqlar va boshqa hisobot shakllarini tuzish uslubini yaratish kabi masalalar bilan bog'liq. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida hisob tizimini strategik rivojlantirish borasidagi ta'kidlangan boshqa muammolarni hal qilish ularda buxgalteriya hisobining konseptual asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari savdo muomalarini, avtotransport harakati va holatini va umumiy ovqatlanish korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlarni dastlabki hujjatlarda rasmiylashtirish, ularni schyotlarda aks ettirish tartibi, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda hisob registrlari shakllarini mukammallashtirish kabilardan iborat.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mazkur xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining huquqiy asoslarini takomillashtirishda ham ayrim muammoli jihatlar mavjud. Jumladan, ayni paytda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar tamoyillariga muvofiqlashtirish xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida moliyaviy hisobot shakllari axborot hajmini oshirish, inventarizatsiya tekshiruvini asosida aniqlangan tovarlar kamomadini to'g'ri rasmiylashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini oqilona tashkil etish olzarb muammolardan hisoblanadi.

Ushbu muammoni yechimini topishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda nazariy-amaliy jihatdan asoslangan hisob siyosatini shakllantirish:

- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda hisob tizimini jahon tajribasidan kelib chiqqan holda moliyaviy va boshqaruv hisobiga ajratish hamda ularni yuritish tartibini belgilab olish.


Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda hisob siyosatini oqilona tashkil etish korxonada buxgalteriya hisobini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va umumiy qoidalar korxonalarining mulkchilik shakli hamda faoliyat ko'rinishidan qat'i nazar barcha uchun bir xilda amal qiladi. Hisob siyosatida ushbu qonunlar va umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda, korxonaga uchun maqbul yo'nalish tanlanadi. Bu yo'nalish korxonaning huquqiy shakli, tarmoq xususiyati, faoliyatining g tavsifi, xodimlarning malakasi va boshqa o'ziga xos jihatlarni ifodalovchi hisob siyosatini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 1-sonli «Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot» nomli milliy standartida korxonaga hisob siyosatini yo'lga qo'yishning umumiy qoidalari, maqsadi, faoliyat sohasi aniq ochib berilgan, lekin, uning moliyaviy hisobot tuzishga sezilarli ta'siri yoritilmagan. Bu standartning 51-bandida «...xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisob siyosati sub'ekt tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzishda qo'llaniladigan o'ziga xos tamoyillar, konventsiyalar, qoida va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi» deyiladi. Mazkur ta'rif yuqorida keltirilgan ta'rifga to'liq mos kelmaydi, chunki unda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish usullari haqida so'z boradi.

Amaliyotda hisob siyosatini davlat va alohida korxonaga miqyosida tashkil etish ko'rinishlari mavjud. Hisob siyosatini quyidagi tarkib bo'yicha yuritish maqsadga muvofiq:

- Umumdavlat miqyosida (1-daraja);

- Tarmoq ya'ni iqtisodiyotning ayrim sohalari miqyosida (2,3 va 4-darajalar);
- Alohida olingan korxonada miqyosida (5-daraja);



#### 4-chizma. Hisob siyosatining tarkibiy jadvali.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini rivojlantirishda ular tomonidan mustaqil qabul qilingan hujjatlar ham alohida ahamiyatga ega. Bularga buyruqlar, qarorlar, farmoyishlar va boshqa ichki tartibni belgilovchi hujjatlarni kiritish mumkin. Ta'kidlaganimizdek, bunday hujjatlar asosan boshqaruv hisobi hususiyatlarini ifodalaydi va korxonada boshqaruvining talablaridan kelib chiqadi. Shuning uchun hisob siyosatini ishlab chiqishda ichki tartib-qoidalarni ifodalovchi boshqaruv qarorlarini to'g'ri qabul qilish, buyruq va farmoyishlarni chiqarishda aniqlikka rioya qilish zarur.

Mamlakatimizning xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobini rivojlantirishda qabul qilingan milliy standartlar ham muhim ro'l o'ynaydi. Biroq, qabul qilingan buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqishda asosan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanilgan, xolos. Ularda

ifoda etilgan konseptual asoslar respublikamiz iqtisodiyotida hali to'la sinovdan o'tmagan.

Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi milliy standartlarining qabul qilinishi korxonalarda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda hisob yuritish tartibini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jumladan, 21-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasini»ni amaliyotga joriy etishning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Ushbu kamchiliklardan biri mazkur standart asosida yangi schyotlar rejasini tarmoq va tarmoqlararo miqyosga mo'ljallangan tizimini ishlab chiqishdir. Ayniqsa, savdo –tijorat korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bu soha uchun yangi schyotlar rejasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Savdo korxonalarida bu muammoning hal etish tovarlar harakatini, ularni sotish xarajatlarini, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini to'g'ri hisobga olish va aniqlashga imkon beradi.

Chet mamlakatlarning iqtisodiy siyosati bizga to'liq mos kelmasligi mumkin lekin biz ulardan o'zimizga keraklisini olsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xalqaro hisob amaliyotida buxgalteriya hisobining quyidagi uchta iqtisodiy modeli mavjud:

- ✓ Britan-amerika modeli;
- ✓ Kontinental model;
- ✓ Janubiy Amerika modeli.

Britan-amerika modelining asosiy maqsadi buxgalteriya hisobini investor va kreditorlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilish hisoblanadi. Bu model AQSH, Buyuk Britaniya, Avtraliya, Kanada mamlakatlarida qo'llaniladi.

Kontinental model Yevropa va Yaponiya kabi kontinental mamalakatlar sanoatining rivojlanishiga asos qilib olingan. Bu modelning maqsadi hukumat talablarini qondirish, shuningdek soliq hisobiga oid masalalarni amalga oshirishdan iborat. Undan Fransiya, Germaniya, Shvetsariya, Shvetsiya,

Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya, Belgiya, Gretsiya, Daniya va Misr kabi mamlakatlar hisob amaliyotida foydalaniladi.

Uchinchi model Janubiy Amerika mamlakatlarida hisob yuritish qoidalarini belgilab berish uchun asos vazifasini bajaradi. Uning asosiy mohiyati soliq siyosatini oqilona amalga oshirishga ko'maklashish va buxgalteriya hisobotini rejalashtirish ishlarini tashkil qilishdan iborat. Mazkur model Argentina, Braziliya, Paragvay, Peru, Urugvay, Chili kabi mamlakatlar hisob amaliyotida qo'llaniladi.



### **III-BOB. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida auditni tashkil etish va uni o'tkazish masalalari.**

#### **3.1.Xizmat korsatuvchi korxonalarida auditni tashkil etishning ahamiyati.**

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tishi tadbirkorlikning rivojlanishi, tashkilot va korxonalarining yangi tashkiliy-huquqiy shakllari vujudga kelishi va mulkchilikning turli shakllari mavjudligi moliyaviy nazorat mehanizmiga tubdan ta'sir ko'rsatadi.

Albatta mustaqillika erishganimizdan so'ng mamlakatimizda korxonalarining yangi tashkiliy-huquqiy shakllari vujudga keldi xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining yangi ko'rinishlari paydo bo'ldi. Bu o'z navbatida yangi tashkil etilgan korxonalarda auditni tashkil etishni talab etadi.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining ayrim xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini (avtotransport tashkilotlari) aksionerlik jamiyatlariga aylantirilgan va ularning nizom jamg'armasida davlat ulushi salmoqli hissaga ega. Majburiy auditorlik tekshiruvlaridan tashqari, korxonalar, tashkilot va firmalar o'zlarining tashabbuslari bilan auditorlik tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishlari mumkin. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad biznes va buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritilishini o'ziga xos ekspertizadan o'tkazish hamda soliq to'lovlarini eng muvofiq holga keltirish va hisobda mavjud bo'lgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishdir.

Xizmat korsatuvchi korxonalarda auditning ahamiyatini quyida:

- ✓ moliyaviy natijalar va moliyaviy hisobotlar auditini tashkil etish;
- ✓ korxonalar daromadlari xisobini auditini tashkil etish;
- ✓ korxonalar xarajatlari auditini tashkil etish orqali yoritib o'tamiz.

Moliyaviy natijalar auditining ahamiyatli tomoni shundaki korxonalar bevosita faoliyati davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish va kelajakda bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik imkoniga ega bo'ladi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditning yana bir muhim jihatlaridan biri bu daromadlar. Bu tekshiruv orqali xizmat ko'rsatuvchi korxonalar

o'zlarining daromadlari kelib tushishi bo'yicha kelgusi rejalar tuzish imkoniga ega bo'ladilar.

Moliyaviy hisobotlarda, odatda, daromadlar alohida bandlar bilan ajratilgan holda belgilanadi. Chet el tajribasida ular foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda, bizning respublikamizda esa – moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi.

Korxonalar o'z faoliyatidan kelib chiqib, daromadni turli usullar bilan aniqlaydilar. Masalan, savdo korxonalari daromadni sotish operatsiyasi bilan belgilaydilar. Yuk tashuvchi avtotransport korxonalari daromadlari ular tomonidan korxonalariga, tashkilotlarga va aholiga, belgilangan ta'riflarga asosan, amalga oshirilgan turli xil avtomobil tashuvlari, ishlar va xizmatlar natijasi maxsuli hisoblanadi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlar va sotilgan taomlardan kelib tushgan summa bo'yicha hisobga olinadi.

Xarajatlar hisobi auditida esa korxonalar qanday kerakli va ortiqcha xarajatlar qilinayotganligini bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda xarajatlar hisobi auditining maqsadi xarajatlar haqiqatga ya'ni me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan yoki asoslanmaganligini tekshirishdir.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan tartib-qoidalar moddiy, moliyaviy mablag'larning mavjudligini baholash va moliyaviy axborotlarni ochishga mo'ljallangan bo'lib, quyidagilarni tekshirishga asoslanadi.

-tekshirilayotgan balansning ishonchliligi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida sodir bo'layotgan muomalalarni hujjatlarda qayd etilganligini ;

-buxgalteriya hisobi schyotlarida ko'rsatilgan aktivlar (majburiyatlar)ning haqiqatda mavjudligi va to'g'ri baholanganligini;

-balans, moliyaviy natijalar, pul oqimlari, xususiy kapital to'g'risidagi moliyaviy hisobot shakllari, tushuntirish xati kabilar me'yoriy hujjatlarga muvofiq tuzilganligini.

Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish, bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish ularda audit o'tkazish usullarini to'g'ri tanlashga bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Biz davlatning nazoratchilik va boshqaruvchi funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda xususiy biznes faoliyatini aralashuvini cheklashni iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'lidagi asosiy vazifalarini biri deb bilamiz»<sup>6</sup> deb ta'kidlagan.

Nazorat bozor iqtisodiyotining asosiy elementlaridan biri bo'lib qolmoqda. Davlat, boshqaruv nazorati tizimi bilan bir qatorda, boshqaruv tizimining barcha pog'onalarini kerakli bo'lgan ma'lumot bilan ta'minlash imkoniyatini yaratuvchi mustaqil nazorat tizimi ham mavjud. Shuning bilan birga, mustaqil nazorat o'z faoliyatini shartnomaviy, tijorat asosida amalga oshirayotgan auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkazilishi ijobiy holdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida davlat tasarrufida bo'lmagan korxonalar va tashkilotlar xech qanday tashqi nazorat turlariga muhtoj emas, chunki ular o'z mulkining egalari bo'lganliklari uchun tashqi nazorat idoralarini jalb qilmagan holda samarali ichki nazoratni tashkil etish imkoniyatiga ega deb hisoblangan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida jamlangan tajriba, vaqt ushbu fikr o'zini oqlmaganligini ko'rsatdi.

Bizning fikrimizcha, aynan iqtisodiyotni boshqarish tarkibi o'zgarganligi, ayrim vazirlik, idoralar va ular bilan bog'liq bo'lgan idoraviy nazorat tizimining tugatilishi O'zbekiston Respublikasida audit rivojlanishining birinchi, tashqi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Aksariyat davlatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham, ko'p tarzdagi mulkchilikka ega bo'lgan iqtisodiyot shakllanishini o'ziga xos xususiyatlariga ega ya'ni nodavlat sektorning tashkil etilishi davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirish yo'li bilan amalga oshirilgan.

---

<sup>6</sup> „Soliq solish va buxgalteriya hisobi“ №4(82),2013. Jurnal.

Ma'lumki to'liq va haqiqiy ma'lumot, boshqarish imkoniyatini yaratadi, uning mavjud bo'lmasligi esa nazoratsizlik va tartibsizlikka olib keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kerakli bo'lgan moliyaviy ma'lumotlar majmuini, faqatgina ushbu ma'lumotlar haqiqiy bo'lganda, to'liq barpo etish mumkin. Faqat haqiqiy ma'lumot davlatga o'z iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini ishlab chiqish uchun foyda keltirish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, foydalanuvchilarning keng doirasi uchun tayyorlangan moliyaviy ma'lumotlar haqiqiyliги mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tekshiruvdan o'tkazish va tasdiqlash yo'li bilan erishish mumkin.

Qaysi mamlakat bo'lmasin, audit uning moliyaviy-iqtisodiy tizimining, uning mazmuni va funksiyalarini aks etuvchi elementi hisoblanadi. Shuning uchun, turli mamlakatlarda «audit» termini turlicha izohlanadi. Mutaxassislikka oid adabiyotda ham audit mazmuni amaliy tadbirkorlik faoliyati ko'rinishida turlicha yoritiladi. Berilgan ta'riflarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu muhim masalani yoritish va ta'riflashda turli fikrlar bildirilgan. Ayrim hollarda audit mazmuni juda qisqa holda ta'riflanib, faqat asosiy mohiyati yoritilgan bo'lsa, ba'zilar tomonidan auditning boshqa funksiyalariga ham murakkab va aniq bo'lmagan ta'rif berilgan. A.Azlarov va B.Xamroev auditga quyidagicha ta'rif beradilar: «Audit deganda korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy hisobotini mustaqil tekshirish va u haqida fikr bildirish tushuniladi.»

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq respublikaning aksariyat xo'jalik yurituvchi iqtisodiy sub'ektlar har yilgi majburiy auditorlik tekshiruvdan o'tishlari lozim. Bunday sub'ektlarga aksionerlik jamiyatlar hamda o'z nizom jamg'armasida davlat ulushiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ham kiradi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida tashqi audit xizmatini tashkil qilish hamda uni o'tkazishning takomillashgan usullaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida auditorlik tekshiruvining uslubiy asoslari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

-savdo, umumiy ovqatlanish, avtotransport korxonalarida audit xizmatini rejalashtirish hamda ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan audit dasturini tuzish;

-barcha yuqoridagi korxonalarda auditorlik tekshiruvi usullaridan samarali foydalanish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

-auditorlik tekshiruvini kompyuterlashtirish yo'nalishlarini belgilash;

### **3.2.Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni rejalashtirish va dasturini tuzish.**

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditning rejasi va dasturini tuzishda iqtisodchi olimlarning fikrlariga tayanamiz.


Mamatov Z.T auditni rejalashtirish jarayonini quyidagicha ta'riflaydi: «auditni rejalashtirish – auditorlik tekshiruvi hajmi, auditning umumiy rejasini tuzish, auditorlik ish rejaları va aniq auditorlik tadbirlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladigan auditning muhim bosqichlaridan biridir».

Musaev H.N.ning qayd etishicha esa, «...auditning rejalashtirilishi ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'z ichiga auditorlik tekshiruvining umumiy hajmini aniqlash, audit dasturini tuzish, auditda qo'llaniladiga usullarni belgilash, tekshirish muddatlari, ko'rsatiladigan xizmatlarni va audit xatarini aniqlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi». Ushbu ta'rif auditni rejalashtirish jarayonini to'liq yoritib bera olmaydi. Unda auditni rejalashtirishda tekshiruv uchun zarur ma'lumotlarning xususiyatlari, audit muhimligi va xatari darajasini baholash kabi jihatlarga etarlicha e'tibor qaratilmagan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida auditni tashkil etish va rejalashtirish bosqichlarini quyidagicha tasvirlash maqsadga muvofiqdir.

Har bir korxonada bo'lgani singari xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda ham auditning o'tkazilishi bu ijobiy holdir. Chunki xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ham mustaqil sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Barcha auditorlik korxonasi

o'zining mijozini tekshirishdan oldin u haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga harakat qiladi. Bu borada auditor mijoz korxonaga qaysi sabablarga ko'ra auditor xizmatiga murojaat qilayotganligini aniqlashi lozim. Auditorlik tashkiloti yana tekshiruv o'tkazish uchun xodimlar jadvalini shakllantirishi, mijoz bilan shartnoma tuzishi lozim.



#### **5-chizma. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni rejalashtirishning asosiy bosqichlari.**

Auditor auditni taxmin qilinayotgan ko'lami va o'tkazish tartibini bayon etgan holda, auditning umumiy rejasini ishlab chiqishi rasmiylashtirilishi lozim. Audit dasturini ishlab chiqishda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi uchun, audit umumiy rejasining hujjatli aks ettirilishi etarli darajada batafsil bo'lishi kerak, bunda uning aniq shakli va mazmuni sub'ekt kattaligi, auditning murakkabligi hamda auditor qo'llayotgan aniq uslubiyat va texnologiyaga bog'liq.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditor auditning umumiy rejasini ishlab chiqishda ko'rib chiqishi talab qilinadigan masalalar quyidagilar:

Biznesni bilishlik:

-sub'ekt biznesiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy iqtisodiy omillar va tarmoq xususiyati;

-sub'ektning, uni biznesning, moliyaviy-xo'jalik faoliyati va hisoboti natijalarining, jumladan oldingi audit o'tkazilgan paytdan sodir etilgan o'zgarishlarning muhim tavsiflari;

-sub'ekt rahbariyati kasbiy xabardorligining umumiy darajasi.

Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarini tushunish:

-sub'ekt tomonidan qabul qilingan hisob siyosati va ushbu hisob siyosatidagi o'zgartirishlar;

-buxgalteriya hisobi va audit standartlarining ta'siri;

-auditor tomonidan buxgalteriya hisobi va audit tizimlariga oid bilimlar to'plami hamda nazorat test so'rovlari va mohiyati bo'yicha amallarga talab qilinadigan tegishli e'tibor qaratish.

Tavakkalchilik va muhimlik :

-ajratib bo'lmaydigan tavakkalchilik va nazorat tavakkalchiligining kutilayotgan baho berish hamda auditning muhim bo'limlarini solishtirish;

-audit maqsadlari uchun muhimlik darajalarini belgilash;

-muhim noto'g'ri aks ettirishlar mavjudligining ehtimoli, oldingi davrlar tajribasi yoki tovlamachilik shular jumlasidan;

-buxgalteriya hisobining murakkab jabhalarini solishtirish.

Amallar tavsifi, muddati va hajmi:

-auditning aniq bir bo'limlariga urg'u berish ehtimoli;

-axborot texnologiyaning auditga ta'siri;

-ichki audit xizmatining ishi va tashqi audit amallariga uning tahmin qilinayotgan ta'siri.

Ishni muvofiqlashtirish, yo'naltirish, unga rahbarlik qilish va sharhlash:

sub'ektning tarkibiy qismlari, masalan sho'ba korxonalari, filiallari va bo'linmalarini audit qilishga boshqa auditorlarni jalb qilish;

-ekspertlarni jalb qilish;

- ish ob'ektlarining miqdori;
- xodimlarga bo'lgan ehtiyojlar.

Boshqa jabhalar:

- sub'ekt uzluksiz faoliyat ko'rsatishi mumkin degan taxminning ehtimoli muammo bo'lishligi;
- alohida e'tiborni talab qiladigan vaziyatlar, masalan o'zaro bog'liq tomonlarning mavjudligi;
- kelishuvlar sharti va qonunchilik bilan belgilangan har qanday majburiyatlar;
- hisobotlarni tayyorlash tavsifi va muddatlari yoki sub'ekt bilan kelishuv doirasida birgalashib harakat qilishning kutilayotgan shakllari.

## 5 –jadval.

### Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda moliyaviy hisobot auditining rejasi.

Tekshirilayotgan tashkilot: «Hayot» MCHJ.

Audit davri 01.03.2011dan 27.03.2011 yilgacha.

Kishi-soatlar soni : 3.

Auditorlik guruhi rahbari: Ismoilov.M

Auditorlik guruhi tarkibi: Zokirov.R. Ro'zimamatov.U.

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari – 2%.

Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi – 5%.

	Rejalashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izohlar
	Moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi registrlar ko'rsatkichari bir-biriga muvofiqligini tekshirish	10.03.2011-11.03.2011	Zokirov.R	Ko'rsatkichlar bir-biriga mos keladi.
	Buxgalteriyaya balansi to'g'ri tuzilganligini tekshirish	11.03.2011-12.03.2011	Ro'zimamatov.U	Balans o'z vaqtida tuzilgan.
	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot to'g'ri tuzilganligini tekshirish	12.03.2011-13.03.2011	Zokirov.R	Daromadlar va xarajatlar to'g'ri ketirilgan.
	Boshqa shakldagi hisobotlar to'g'ri tuzilganligini tekshirish	13.03.2011-14.03.2011	Ro'zimamatov.U	Hisobot tekshirildi.

Imzolar

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Auditorlik tashkiloti rahbari

Auditorlik guruhi rahbari



Auditor dasturini tayyorlash jarayonida, auditor ajralmas tavakkalchilik va nazorat tavakkalchiliklari aniq baholanganligini hamda mohiyati bo'yicha amallar bilan ta'minlanadigan kerakli bo'lgan ishonchlilik darajasini ko'rib chiqish lozim.

Auditning dasturi audit rejasining rivojlanishi hisoblanib, tekshiruvning har bir aniq bo'limi uchun kerakli bo'lgan auditorlik amallar ro'yxatidan iboratdir. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditor dasturi quyidagi ikki turda bo'ladi:

1. korxonada ichki nazorat tizimi to'g'risida ma'lumot to'plash uchun amallardan tarkib topgan nazorat testlari dasturi;
2. bevosita shyotlardagi qoldiqlar to'g'risida ma'lumot to'plash uchun amallardan tarkib topgan shyotlardan qoldiqlarni tekshirish dasturi.

Auditorlik dasturi quyidagi omillardan tarkib topgan:

1. auditorlik ishlash jadvali.
2. Jadval auditorlik xulosasini tayyorlash uchun tekshiruv davrida to'plangan materiallar va boshqa hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish chegaralangan muddatlarini belgilaydi. Jadvalni tuzish paytida, foyda olishni ta'minlash maqsadida, olishga mo'ljallangan haqning hisobga olgan holda va uning doirasida, tekshiruvning alohida turlari va bo'limlarini tekshirish uchun sarflanadigan vaqt masalasi hal etiladi;
3. batafsil amallar.
4. Audit dasturi yozma ravishda tayyorlanadi. Dasturlar auditorlik tekshiruv rejasini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan barcha amallar hamda tekshiruvning har bo'limi bo'yicha maqsad va vazifalar mufassal yoritiladi;
5. audit bo'yicha ishni nazorat qilish.
6. Dasturda tekshiruvga yuborilgan auditorlik guruhining barcha a'zolari ular zimmasiga qo'yilgan talablarni bilishligi nazarda tutiladi. U bir vaqtning o'zida auditorlik guruhidagi kichik auditorlar va assistentlar topshiriqlarni qay darajada bajarayotganligini nazorat qiluvchi asosiy hujjat hisoblanadi;

7. xodimlar.

8. Dasturda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun kerakli bo'lgan xodimlar soni, ular ishining hajmi va mazmuni belgilanadi.

Odatda auditni asosiy auditor, auditor yordamchilari va assistentlaridan iborat guruh amalga oshiradi.

Moliyaviy hisobot moddalarini to'g'riligini tasdiqlash maqsadida miqdoriy xatolar va kamchiliklarni tekshirish uchun operatsiyalar testlari ishlab chiqiladi.

6-jadval

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida moliyaviy hisobot audit dasturi.

Tekshirilayotgan tashkilot: «Hayot» MCHJ.

Audit davri 01.03.2011dan 27.03.2011 yilgacha.

Kishi-soatlari soni : 3.

Auditorlik guruhi rahbari: Ismoilov.M

Auditorlik guruhi tarkibi: Zokirov.R. Ro'zimamatov.U.

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari – 2%.

Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi – 5%.

№	Audit bo'limlari bo'yicha auditorlik tadbirlari ro'yxati	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Auditorning ish hujjatlari	Izohlar
1	Moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi registrlar ko'rsatkichlari bir-biriga muvofiqligini tekshirish	01.03.11-03.03.11	Zokirov.R.	AFMS. BHMS	muvofiq
1.1	Moliyaviy hisobot ishonchliligini ta'minlovchi omil sifatida buxgalteriya hisobi schyotlaridagi yozuvlar asoslanganligini tekshirish	03.03.11-05.03.11	Zokirov.R.	AFMS BHMS	asoslangan
1.2	Hisob registrlari to'g'ri tuzilganligini tekshirish	05.03.11-07.03.11	Ro'zimamatov.U	AFMS BHMS	To'g'ri
1.3	Korxonada moliyaviy hisobotini o'rganish va u belgilangan muddatlarda taqdim etilishini tekshirish	07.03.11-09.03.11	Ro'zimamatov.U	AFMS BHMS	muddatida

1.4	Tahliliy hisob ko'rsatkichlarini bosh kitob va balans moddalaridagi ko'rsatkichlar bilan solishtirish	09.03.11-11.03.11	Zokirov.R	AFMS BHMS	Solishtirma hujjatlar
2	Buxgalteriya balansi to'g'ri tuzilganligini tekshirish	11.03.11-13.03.11	Zokirov.R	AFMS BHMS	To'g'ri
2.1	Balansdagi ko'rsatkichlar to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish	13.03.11-15.03.11	Ro'zimamatov.U	AFMS BHMS	To'g'ri
2.2	Balansda uzoq muddatli aktivlar qoldiqlari to'g'ri tuzilganligini tekshirish	15.03.11-17.03.11	Ro'zimamatov.U	AFMS BHMS	To'g'ri tuzilgan
2.3	Balansda joriy aktivlar qoldiqlari to'g'ri tuzilganligini tekshirish	17.03.11-19.03.11	Zokirov.R	AFMS BHMS	To'g'ri tuzilgan
2.4	Balansda o'z mablag'lari manbalari to'g'ri tuzilganligini tekshirish	19.03.11-21.03.11	Zokirov.R	AFMS BHMS	To'g'ri tuzilgan
2.5	Balansda majburiyatlar to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish	21.03.11-23.03.11	Zokirov.R	AFMS BHMS	To'g'ri aks ettirilgan.

Imzolar \_\_\_\_\_ Auditorlik tashkiloti rahbari

\_\_\_\_\_ Auditorlik guruhi rahbari

Boshqa korxonalar singari xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit dasturi shunday jadval asosida tuziladi.

### **3.3 Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida audit natijalarini umumlashtirish.**

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit o'tkazilgandan so'ng audit natijalari umumlashtirilish lozim. Audit natijalarini umumlashtirish audit dasturi va rejasidan foydalaniladi.

Auditorlik hisobotini va xulosasini shakllantirish audit rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida vujudga keladi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit natijalarini umumlashtirish ishlari asosan quyidgilarni o'z ichiga oladi:

- ishchi hujjatlarni sharxlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash;
- aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash ;
- auditorlik dalillarining etarliligini baholash;
- buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish;
- hisobot tuzilganidan so'ng sodir bo'lgan hodisalarni baholash;
- tekshiruv natijalari bo'yicha auditorning mijoz-korxonaga rahbariyatiga taqdim qiladigan yozma axborotini tuzish;
- auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish.

Auditorlik tekshiruv o'tkazish chog'ida asosan tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi dastlabki hujjatlari, hisob registrlari va hisobotlarida aks etirilgan haqiqiy axborotlar tahlil qilinadi va baholanadi. Faqat ayrim hollardagina auditorlar taxmin va hisob-kitoblarga asoslangan moliyaviy axborotlarni baholaydilar.

Auditor quyidagi hollardagi kabi, katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni obyektiv baholashi zarur:

-xo'jalik yurituvchi sub'ekt xodimlariga ma'lum bo'lgan, ammo auditor tomonidan ochilmagan xatolarni aniqlash faktlari;

-tekshiruv uchun zarur bo'lgan, auditorga o'z vaqtida zarur bo'lgan, auditorga o'z vaqtida taqdim qilinmagan dastlabki hujjatlar yoki ma'lumotlarga doir xo'jalik muomalalari;

-mutaxasislarning hisob-kitoblaridagi nomuvofiqliklar;

-inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnoma va taqqoslash qaydnomalari bilan rasmiylashtirilgan, lekin etarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar;

-katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor so'rovlariga kutilgan javoblar olinmaganligi;

-takshiruv uchun tanlab olingan, zarur dastlabki hujjatlar yoki tegishli ruhsat etuvchi ko'rsatmalar taqdim qilinmagan xo'jalik muomalalar.

Auditor to'plangan dalillar yetarliligini baholashda ushbu holatlar aniqlangan bosqichni hisobga olishi kerak. Shuningdek, katta xatolar xatarini dastlabki baholash va batafsil tekshirish rejalari ham e'tiborga olinishi lozim.

Agar bunday xatolar rejalashtirish bosqichida aniqlangan va hisobga olingan bo'lsa, unda auditor to'plangan dalillarning etarligiga va rejalashtirilgan hamda qo'shimcha auditorlik amallarini bajarishning maqsadga muvofiqligiga baho berishi zarur. «Sub'ekt rahbariyatining taqdimotlari» nomli 580-sonli AXSga asosan oxirgi auditorlik dalillari sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatining taqdimoti auditor tomonidan olinadi va ishchi hujjatlar tarkibiga kiritiladi.

Auditor sub'ekt rahbariyati moliyaviy hisobotni taqdim etish bo'yicha moliyaviy hisobot haqiqiy taqdim etilishi yuzasidan o'z ma'suliyatini tan olganligi va moliyaviy hisobot sub'ekt rahbariyati tomonidan tasdiqlanganligi bo'yicha dalil olishi lozim. Auditor rahbariyat bunday ma'suliyatni tan olishi va moliyaviy hisobotni tasdiqlashi yuzasidan dalilni direktorlar kengashi yoki shunga o'xshash idora majlisining tegishli bayonnomalaridan yoki sub'ekt rahbariyatining yozma taqdimotnomalaridan yoki imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasidan olishi mumkin.

Rahbariyatdan so'rab olinadigan yozma taqdimotlar, majmui yoki alohida ko'rinishda, moliyaviy hisobot uchun muhim masalalar doirasi bilan cheklanishi mumkin. Muayyan moddalar yuzasidan auditor ular muhimligini tushunganligi to'g'risida sub'ekt rahbariyatiga xabar berish ehtiyoji paydo bo'lishi mumkin.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit o'tkazish paytida rahbariyat o'z tashabbusi bilan yoki aniq belgilangan so'rovnomalar bo'yicha auditorga juda ko'p taqdimotlar taqdim etadi. Bunday taqdimotlar moliyaviy hisobot uchun

muhim masalalarga tegishli bo'lgan taqdirda, auditor quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- a) korxonada ichidagi yoki uning tashqarisidagi manbaalardan tasdiqlovchi auditorlik dalillarini izlashi;
- b) korxonada taqdimotlari oqilonaligi va ular olingan boshqa auditorlik dalillariga, jumladan boshqa taqdimotlarga izchiligiga baho berish;
- c) korxonada taqdimotlarini tayyorlovchi shaxslar alohida masalalar bo'yicha qanchalik yaxshi xabardor ekanligini ko'rib chiqish;

Auditor odatda, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar taqdimotlari olinganligi holatini tasdiqlovchi dalillarni rahbariyat bilan qilingan suhbatlarni qisqa bayon qilish shaklida yoki sub'ekt rahbariyatining yozma taqdimotlari ko'rinishida ishchi hujjatlarga kiritadi.

Sub'ekt rahbariyatining yozma ravishdagi taqdimotlari og'zaki tarzda qilindan yaxshiroq dalil hisoblanadi va quyidagi ko'rinishda rasmiylashtirilishi mumkin:

- a) korxonada rahbariyatidan yo'llangan xat-taqdimot ko'rinishida;
- b) tegishli ravishda sub'ekt rahbariyati tomonidan tan olingan va tasdiqlangan korxonaning taqdimotlari auditor tomonidan tushunganligini bayon qiluvchi auditorning xati;
- c) direktorlar kengashi yoki shunga o'xshash idoraning tegishli bayonnomalari yoki imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasi.

Korxonada rahbariyati xat-taqdimotining asosiy elementlari:

- a) korxonada rahbariyatidan xat-taqdimotni so'rab, auditor ushbu xat uning nomiga yo'llanishi, aniq belgilangan ma'lumotga ega bo'lishi va tegishli ravishda sana qo'yilishi va imzolanishini so'raydi.
- b) xat-taqdimotga, odatda, auditorlik hisoboti imzolangan sana qo'yiladi.
- c) korxonaning xat-taqdimoti, odatda, asosan sub'ekt faoliyatiga javob beradigan, yaxshi bilim va ishonchga asoslangan holda, uning a'zolari tomonida imzolanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonada rahbariyati auditor kerakli deb hisoblagan taqdimotlarni taqdim etishdan bosh tortsa, bu audit ko'lamini cheklash deb hisoblanadi, va auditor o'z fikrini sharhlar bilan bildirishi yoki fikr bildirishdan voz kechishi lozim. Bunday vaziyatlarda auditor, odatda, audit paytida sub'ekt rahbariyati tomonidan qilingan boshqa barcha taqdimotlarning ishonchlilik darajasiga baho beradi va auditorlik hisobotiga rad etishning har qanday boshqa natijalarining ta'sirini ko'rib chiqadi.

Audit natijalarini umumlashtirish bilan birgalikda auditor, auditorlik tekshiruvini yakunlash jarayonida audit dasturining barcha bandlari bajarilganligini tekshirishi lozim.

Bundan tashqari audit natijalarini umumlashtirish jarayonida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuziladi. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonunida belgilanishicha: auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariga, mulkdorga, qatnashchilarining umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjat (18-modda). «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risida auditorlik xulosasi» nomli 70-sonli AFMS ga muvofiq auditorlik hisobotining tarkibi quyidagicha:

- a) nomi («Auditorlik hisoboti» va yoki «Auditorlik tashkilotining hisoboti» degan har ikkala nom bir xil ma'noga ega);
- b) adresat nomi;
- c) kirish qismi;
- d) ta'kidlash qismi;
- e) yakuniy qism.

Auditorlik hisoboti moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o'tkazgan auditor tomonidan betma-bet imzolanishi kerak. Auditorlik

hisoboti auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga, buyurtmachining barcha zarur rekvizitlari ko'rsatilgan holda ko'rsatiladi.

Auditorlik hisobotida kirish qismi ko'rsatiladi va kirish qismida auditorlik tashkilotining rekvizitlari, berilgan litsenziya raqami va sanasi, auditorlik tekshiruvda qatnashgan shaxslar va boshqalar ko'rsatadi.

Shuningdek auditorlik hisobotida:

-korxonadagi ichki nazoratning ahvolini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar;

-xizmat ko'rsatuvchi korxonada buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining ahvolini tekshirish natijalari to'g'risida axborotlar;

-xizmat ko'rsatuvchi korxonada tomonidan moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar.

-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar;

-aktivlar saqlanishini tekshirish natijalari aktivlarni inventarizatsiya qilishga asoslanishi va ularning haqiqatda mavjudligi hamda butligi to'g'risidagi axborotlar ko'rsatiladi.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismida aniqlangan xato kamchiliklar va qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha auditorlik tashkilotining tavsiyalari hamda hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha maslahatlar va takliflari aks ettiriladi.

Auditorlik hisobotini umumlashtirish jarayonida auditorlik xulosasi ham hisobga olinadi. Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi bo'lib, undan foydalanuvchilar uchun ushbu hisobot ishonchliligi axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar auditorlik xulosasida bayon qilingan fikrga tayanib, auditorga yoki auditorlik firmasiga ishonch bildiradilar.



O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunida belgilanishicha, auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat. Auditorlik xulosasi auditorlik hisoboti asosida tuziladi.

Auditorlik xulosasi uchta: kirish, ta'kidlovchi va yakunlovchi qismdan iborat bo'lishi lozim.

1. Kirish qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

- ✓ auditorlik tashkilotining yuridik manzili va telefonlari;
- ✓ litsenziyasining tartib raqami;

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faqat auditorlik xulosasining yakuniy qisminigina manfaatdor shaxslarga taqdim qilishi lozim. Shu munosabat bilan auditorlik xulosasining tahliliy qismi va yakuniy qismi alohida imzolanishi va muhrlanishi mumkin. Auditorlik xulosasining uchta turi mavjud:

- a) ijobiy auditorlik xulosasi;
- b) salbiy auditorlik xulosasi;
- c) xulosa tuzishdan voz kechish.

Ijobiy auditorlik xulosasida buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi auditor tomonidan tasdiqlanadi.

Qoidaga ko'ra ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti xizmat ko'rsatuvchi korxonaning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holati va sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini ishonarli aks ettiradi degan fikrga kelgan vaqtda tuzilishi lozim.

Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risida ishonarli ma'lumot bermagan va buxgalteriya hisoboti

hamda uning moliya-xo'jalik faoliyati hisobi amaldagi me'yoriy qonunchilik talablariga mos kelmagan holda yuritilgan vaqtda tuziladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Bugungi kunda hech bir milliy moliya bozori xalqaro moliya bozoridan ajralgan holda rivojlana olmasligi aniq holatdir. Shuning uchun yagona xalqaro standartlarni ishlab chiqish jarayonini to'xtatib bo'lmaydi.

Biz yuqorida bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni o'rni, ahamiyati, vazifalari va buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari va ularni yo'lga qo'yish va yuritishning shaklini hamda auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish bilan kengroq tanishib chiqdik.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish davrida, rivoj topayotgan iqtisodiyotning yangi bir bosqichida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobi va auditni tizimli tashkil etish muhim masala sifatida qaraldi va quyidagicha takliflar berildi.

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini yaxshilash hamda ularning hisobini O'zbekiston Respublikasida belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, har bir xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish ham iqtisodiy ahamiyatga molikdir.

2. Bitiruv malakaviy ishi bozor munosabatlari sharoitida Respublikamiz iqtisodiyotida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining ahamiyati, ularni tashkil qilish va rivojlantirish zarurati asoslangan. Unda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining umumiy va farqli jihatlari iqtisodchi olimlar fikrlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ifodalab ko'rsatilgan.

3. Bitiruv malakaviy ishida soha korxonalarida hisob tizimi oldiga qo'yilgan vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

4. Bu mavzu asosida bitiruv malakaviy ishida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobining konseptual asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga moliyaviy va boshqaruv hisobini sohada qo'llashga ehtiyoj mavjudligi ta'kidlangan.

Ayniqsa, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tartibi alohida har bir korxonaga bo'yicha ko'rsatib o'tilgan.

5. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda dastlabki va yig'ma hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha muhim ilmiy takliflar berilgan. Bitiruv malakaviy ishida tovarlarning kirimi va chiqimi, jo'natish va sotish muomalalarini hisobga olish, xizmat ko'rsatish jarayonidagi muomalalar va xarajatlarni hisobga olish, tovarlar inventarizatsiyasini to'g'ri rasmiylashtirish borasida tavsiyalar berilgan.

Mavzuga aloqador korxonalar davlat oldidagi majburiyatlar ya'ni soliq majburiyatlar, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar va boshqa majburiyatlarni hisoblash ochib berilgan .

6. Bitiruv malakaviy ishida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda auditni tashkil qilishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ushbu mavzu asosida mazkur korxonalarda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish tartibi ishlab chiqilgan va auditorlik faoliyatiga qo'yiladigan umumiy talablar belgilab berilgan. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida audit o'tkazish rejasining namunaviy shakli tavsiya etilgan.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari ochib berildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi jarayonida mamlakatning iqtisodiy sohalarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berish asosiy masalaga aylandi. Albatta bitiruv malakaviy ishiga aloqador bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Chunki mamlakatning iqtisodini rivojlantirishda bu korxonalar alohida o'rin tutishini biz yuqorida ko'rsatib o'tdik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

#### I. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. - T.: Adolat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may.

#### I.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 martdagi "2005-2006 yillarda korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davlat Dasturi to'g'risida"gi PQ-29-sonli Qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi "Tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-100-sonli Qarori;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'yektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2005 yil 6 oktyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi PQ-615-sonli Qarori;
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi "Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-907-sonli Qarori.

#### I.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va

davlat mulkini zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 215-sonli Qarori;

11. I.4. O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining me'yoriy hujjatlari.

12. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrda "Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to'ldirilishi bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" gi 140-sonli buyrug'i.

13. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» 1998-2010 yillar.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Auditorlik faoliyatining milliy standartlari» 1998-2010 yillar.

## II. Prezident I.A. Karimov asarlari

15. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"- T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b.

16. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T O'zbekiston . 2010

17. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T O'zbekiston . 2011.

18. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. -T. O'zbekiston. 2011.

19. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz- keng qo'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom etirish. Toshkent.: «O'zbekiston», 2013 y, 64 b.

## III. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar.

20. Akromov E. A. Analiz finansovogo sostoyanie predpriyatiya. - T.: 2001. – 109 s.

21. Abdullaev YO. va boshq. Iqtisodiy tahlil.-T.: Mehnat. 2001. 256 b.

22. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili.-T.: Moliya. 2003.- 208 b.

23. Vahobov. A., Ibrohimov A. Moliyaviy tahlil. Darslik.-T.: Sharq. 2002.-201 b.

24. Bobojonov O. Moliyaviy hisob. Darslik. Buxgalteriya hisobining xalqaro (IAS), Amerika (GAAP) va milliy (BXMS) standartlariga asosan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan. - T.: Moliya, 2002.-342 b.
25. Gadoev E. va boshq. Yillik hisobot-2008. Toshkent: NORMA, 2009.- 476 b.
26. Gadaev E. i drugie. Godovoy otchet-2009. NORMA, 2010.- 268 b.
27. Gadoev E. va boshqalar. Buxgalter uchun amaliy qo'llanma: ikki jildlik. Toshkent NORMA 2010
28. Abdulkarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari.-T.: Iqtisod va huquq dunyosi. 1999.
28. Sharifxo'jaev M., Abdullaev YO. Menejment. Darslik.-T.: O'qituvchi. 2001.
29. To'laxo'jaeva M.M. Hisobvaraqlar rejasi 2001 yil. «Soliqlar va bojxona xabarlarini» gazetasi.1999 yil.
30. Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2008.-444 b
31. Ibragimov A., Raximov M. Iqtisodiy taxlil; 100 savol va javob. T.; Mexnat, 2001.
32. Karimov A., Islomov F., va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004.-408 b.
33. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari.-T.: TMI. 2004.-245 b.
34. Ortikov X.A. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobinint milliy standartlariga sharhlar to'plami. Toshkent, «NORMA», 2010. - 508-b
35. Ochilov I., Qurbonboev J. Moliyaviy hisob. T.: TMI, 2004.-234 b.
36. Pardaev M. Isroilov B. Iqtisodiy tahlil. 1-2 qism.-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2001.-156 b.
37. Pardaev M. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik.-Samarqand.: Zarafshon. 2001.-272 b.

38. Sotivoldiev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. - T.: Milliy Assotsiatsiyasi, 2004, 429 b.
39. Sotivoldiev A.S. Buxgalterning izohli lug'ati. Toshkent: NORMA, 2010 yil. 280 b.
40. G'ulomova F.G'. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. Toshkent: NORMA, 2010 yil. 446 b.
41. O'razov K., Vohidov S. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Toshkent: -"ADIB NASHRIYOTI" MCHJ, 2011 yil, 488 b.

#### **IV. Internet saytlari.**

<http://www.gov.uz>.

<http://www.bir.uz>

<http://www>.referat.uz>

<http://www>.lexuz.uz>

<http://www>.undp.uz>

<http://www>.bem.uz>

<http://www.buh.ru>



